

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK: 370.3

ZUBAYDULLAYEV O'KTAM RAIM O'G'LI

**TALABALARNI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA
IQTISODIY TA'LIM BERISHGA TAYYORLASHNING
PEDAGAGIK ASOSLARI**

5A 110901 – Pedagogika

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga

Ilmiy rahbar:

Ruxsat berildi.

prof. Shodiyev N. _____

«Pedagogika» kafedrası mudiri
prof. Hasanova K. _____

« _____ » _____ 2013 y

M.O'.

Samarqand – 2013

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini iqtisodiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash - ilmiy pedagogik muammo sifatida	10
1.1. Mustaqil Respublikamizning bozor munosabatlariga o‘tish davrida o‘quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash.....	10
1.2. Oliy o‘quv yurtlarida talabalar iqtisodiy tayyorgarligining hozirgi holati.....	21
1.3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini iqtisodiy tarbiyalash bo‘yicha o‘qituvchining pedagogik faoliyati.....	29
II BOB. Talabalarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga pedagogik-psixologik va umumkasbiy tayyorgarligining mazmuni, shakl va vositalari	41
2.1. Talabalarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga pedagogik-psixologik tayyorgarligi.....	41
2.2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga iqtisodiy tarbiya berishda talabalarni umumkasbiy tayyorgarligi.....	58
III BOB. Sinov-tajriba ishining natijalari va yni muhokama qilish	67
3.1. Talabalarni iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga tayyorgarligini holatini o‘rganish	67
3.2. Sinov-tajriba ishining natijalari va metodikasi.	75
Umumiy xulosalar va ilmiy-nazariy tavsiyalar.	80
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	82

Kirish

Muammoning dolzarbligi. Yosh avlodni komil inson etib tarbiyalash g'oyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Asosiy qonun), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"[1.6]da, Prezident I.Karimov asarlarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov, hukumatimiz tomonidan barkamol avlodni ma'naviy yetuk, iqtisodiy jihatdan bilimdon, teran fikrlaydigan, yuksak iqtisodiy bilim va madaniyatga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq qabul qilingan qator huquqiy-me'yoriy hamda amaliy tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da berilgan vazifa, ya'ni "ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning ...iqtisodiy, ...ta'lim hamda tarbiyasini takomillashtirish" maktab amaliyotida o'z yechimini topmoqda[1.6].

Respublikamiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tayotgan bir vaqtda iqtisodiyotning mohiyati, vazifasi, maqsadlarini o'rganish har bir ta'lim oluvchi uchun muhim ahamiyat kasb etishi haqida to'xtalib, Prezident I.Karimov "Biz yosh avlodni maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnayotgan davridan boshlab, xalqimizning asrlar davomida shakllangan Sharq pedagogikasi, umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashimiz lozim. Bozor munosabatlariga o'tish davrida talabalarga iqtisodiy bilimlarni, marketing, menejment, biznes sohasida bizning iqtisodiy rivojlanishimizda bu tushunchalarning mohiyati va roli borasida ko'proq bilim berishimiz maqsadga muvofiqdir". [1.5]

Prezidentimiz huzuridagi iqtisodiy islohat, tadbirkorlik va xorijiy sarmoyalar bo'yicha idoralararo kengashning 1996 yil 16 martdagi "O'zbekistonda iqtisodiy ta'limni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari" Qarori, uni bajarish va mazkur soha bo'yicha uzluksiz ta'limni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 1996 yil 29 apreldagi buyrug'i asosida barcha umumta'lim maktablarining I-IX sinflarida maxsus dasturlar va darsliklar asosida "iqtisodiy ta'lim asoslari" fani o'qitila boshlandi.

Shuningdek, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻquvchilarga iqtisodiy taʼlim berish borasida qator amaliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimiz pedagog, iqtisodchi olimlari tomonidan yaratilgan koʻpgina oʻquv qoʻllanma va adabiyotlar bilan bir qatorda ingliz tilidagi “Applied Economics” (Amaliy iqtisodiyot) oʻquv qoʻllanmasi va “Study Guide” mashqlar toʻplami keng foydalanish uchun oʻzbek tiliga tarjima qilindi. YUNESKO tashkilotining Osiyo Tinch okeani boʻyicha mintaqaviy vakolatxonasi homiyligida “Kichik tadbirkorlik bilan shugʻullanadiganlar uchun oʻquv qoʻllanma”si chop etildi va amaliyotga joriy etildi.

Biroq, Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunida “Umumiy oʻrta maktab, shuningdek, oʻrta mahsus, kasb-hunar taʼlimining majburiyigi” alohida taʼkidlanganligiga qaramay, maktabda, shu jumladan, uning boshlangʻich boʻlimida oʻquvchilarga iqtisodiy taʼlim-tarbiya berish ishi mamlakatimizda bosqichma-bosqich qaror topoyotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga, ilmiy texnika taraqqiyoti talablarga javob bera olmayapti. Koʻpchilik maktab yoshidagi oʻquvchilar yetarli darajada iqtisodiy tayyorgarliksiz oʻrta maktab ostonasiga qadam qoʻymoqdalar. “Iqtisod alifbosi” oʻquv fani boʻyicha egallashi zarur boʻlgan tushunchalarni maʼno-mohiyatini izohlab berishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ota-onalarining mehnat natijalari qadriga yetmayaptilar, oilada va maktabda suv, elektro-energiya tejami, oʻquv adabiyotlarni asrab-avaylashga befarq boʻlayaptilar. Ayrim oʻquvchilarda pulga oʻta oʻch boʻlish, pul topish yoʻlida maktabga bormaslik, dangasalik, ishyoqmaslik kabi illatlar koʻzga tashlanmoqda.

Yuqorida bayon qilinganlarning asosiy sabablaridan biri maktab oʻqituvchilari, shu jumladan, boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining oʻquvchilarga iqtisodiy taʼlim –tarbiya berishga yetarli darajada tayyor emasliklaridan dalolat beradi.

Ushbu tayyorgarlikning asosiy kamchiliklariga yoshlarning politexnik va iqtisodiy saviyasining sustligi, ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatlarini bilmasligi, dars va darsdan tashqari mashgʻulotlarda iqtisodiy taʼlim-tarbiyaning amalga

o'shishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl, metodlari haqida chegaralangan va ko'p hollarda noto'g'ri tasavvurga ega bo'lganligi va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Shuningdek, uzliksiz ta'limning ilk bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi ta'limning shakl va metodlaridan foydalanib, maktab yoshidagi o'quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda; turli-tuman metod va uslubiyatlarni tanlashda; har bir o'quvchi va o'quvchilar jamoasiga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish bo'yicha tarbiyaviy ishlar rejasini ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Oliy o'quv yurt(OO'Yu)larida o'quv tarbiya jaroyoni talabalarni boshlang'ich maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga yo'naltirilmagan. "Boshlang'ich ta'lim va sport" o'quv ta'lim yo'nalishi rejasiga kiritilgan umumkasbiy, maxsus va tanlov fanlari na'munaviy darsliklarining bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish bo'yicha mavjud potensial imkoniyatlari ishlatilmayapti. Pedagogik amaliyot, ijtimoiy foydali, unumli mehnat, ilmiy tadqiqot, ilmiy uslubiy, auditoriyadan tashqari mustaqil ishning imkoniyatlari nomoyon qilinmagan.

Yuqorida bayon qilinganlarning barchasi jamiyatimizning o'quvchilarni maktab partasidayoq iqtisodiy munosabatlarga kirisha olishga tayyor bo'lishlariga bo'lgan zaruriy ehtiyoji bilan ularni ta'lim-tarbiya tizimida mazkur ishga tayyor emasliklari orasida ziddiyat mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu ziddiyatni hal qilish..... muommosini ishlab chiqishni taqazo etadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yosh avlodga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish zarurligi ulug' mutafakkirlarimiz Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qashg'ariy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va b.q. asarlarida, Qur'oni Karim, hadislarida ilgari surilgan.

O'quvchilarni iqtisodiy ta'lim-tarbiya bilan qurollantirishning ayrim masalalari MDH mamlakatlari va Respublikamiz olimlari tomonidan tadqiq qilish bo'yicha ayrim tajribalar to'plangan.

Ushbu sohada samarali tadqiqotlar olib borgan MDH mamlakatlari olimlaridan Shemyakin B.P., Sasova N.A., Kurakov P.P., Amend A.F, Vasil'ev Yu.K., Rozov V.K., Nisimchuk A.S. va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Mazkur mualliflarning asarlarida o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish umumta'lim fanlarini o'qitish jarayoni kesimida muhokama qilingan bo'lib, ularda iqtisodiy talim-tarbiyaning asosiy vazifalari, prinsiplari, mazmuni, asosiy tashkiliy shakllari va metodlari ishlab chiqilgan.

Bizning tadqiqotimiz uchun A.F.Amendning "Kichik yoshdagi o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash"[2.1], B.P.Shemyakinning "O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash: nazariya va metodika muammolari" nomli o'quv qo'llanmalari asqotadi[2.47].

Respublikamizning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish munosabati bilan o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish vazifasi pedagog olimlarimizning ilmiy-tadqiqot mavzusiga aylandi.

Maktab o'quvchilariga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishning ayrim qirralarini birinchilardan bo'lib, Z.A.Valiyeva, N.Q.Kamolova, X.J.Xudoyqulov, B.B.Sobirov, A.K.Suvonqulov, B.X.Yunusboyev, E.Umirzoqov, N.A.Hamedova va boshqalar tadqiq qildilar.

Maktabning yuqori sinf o'quvchilarini iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga oid o'quv pedagogik adabiyotlar bilan ta'minlashda Z.Valieva, Q.Yo'ldoshov, Q.Muftaydinov, U.Parpiev, I.Salomov, E.Sodiqov, M.Mamatov, B.Haydarov, N.To'xliev, A.O'lmasov va boshqalarning hissalarini salmoqli bo'ldi.

Mustaqillikni qo'lga kiritgancha o'tgan davrda boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodiy ta'lim -tarbiya berish masalasi bir muncha e'tibordan chetda qolgan bo'lsada, keyingi yillarda M.Abdalimov, Z.Valiyeva, B.Karimov, B.Toshmurodov, A.Sanaqulov, X.Xudoyqulov va boshqalarning sa'y-harakatlari tufayli qator o'quv qo'llanma, uslubiy-amaliy adabiyotlar yaratildi.

Shuningdek, tadqiqotimiz doirasida Sh.N.Fayzullayevning "Bo'lajak fizika-matematika o'qituvchilarini maktabda o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishga tayyorlash", D.U.Djo'rayevning "Kasbiy ta'limda iqtisodchi pedagoglarni

o‘zbek xalq pedagogikasidan foydalanish orqali kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish” masalalariga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi tayyorlanganligini ta’kidlash lozim.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish ishining samarasi ko‘p jihatda bu ishga maktab o‘qituvchisining qay darajada tayyorgarligiga bog‘liqligini hisobga olib, tadqiqot ishimizning mavzusini **“Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini iqtisodiy ta’lim-tarbiya berishga tayyorlashning pedagogik asoslari”** deb ifodaladik.

Tadqiqotning maqsadi: pedagogik yo‘nalishidagi OO‘Yulari talabalarini maktabda kichik yoshdagi o‘quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish ishiga tayyorlashning pedagogik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob‘yekti: OO‘Yu o‘quv - tarbiya jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti: boshlang‘ich ta’lim va sport yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarni kichik yoshdagi o‘quvchilarga iqtisodiy ta’lim va tarbiya berish ishiga tayyorlashning mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning vazifasi: mavzuga oid ilmiy, metodik, pedagogik, psixologik hamda tarixiy-falsafiy manbalarni o‘rganish, tahlil qilish asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining iqtisodiy tarbiya nazariyasi va metodik tayyorgarligini amalga oshirish dolzarb muammo ekanligini namoyon qilish;

- talabalar iqtisodiy tayyorgarligining holatini hamda OO‘Yuning bu sohadagi imkoniyatini boholash;

-bo‘lajak o‘qituvchilarni maktabda iqtisodiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning optimal mazmunini loyihalashni va tajriba-sinov ishini amalga oshirish.

Tadqiqot metodlari: pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, anketa, savol-javob, suhbat, kuzatish, analitik obzor, pedagogik eksperiment, matematik statistika.

Tadqiqotda quyidagilar faraz qilingan: - talabalarni - boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini maktabda iqtisodiy ta’lim-tarbiyani amalga oshirish ishiga tayyorlashni samarali ta’minlashi qator pedagogik shart-sharoitlar va didaktik vazifalarning mavjudligi va amalga oshirilishi bilan bog‘liq. Ular jumlasiga:

- OO‘Yuda talabalarni iqtisodiy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida maktab o‘qituvchisining mazkur soha bo‘yicha pedagogik faoliyatini modellashtirishni;

- iqtisodiy ta‘lim–tarbiya vazifalarini OO‘Yu o‘quv-tarbiya jarayonning barcha bo‘g‘inlarida aks ettirishni;

- talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini amalga oshirishda umumilliy, umumkasbiy va maxsus fanlar o‘qituvchilarining psixologik-pedagogik va kasbiy yo‘nalganligini;

- OO‘Yuda ta‘lim metodlarini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining iqtisodiy tayyorgarligi mos kelishini kiritish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Prezident I.Karimovning asarlari va ma‘ruzalariada bayon qilingan ta‘limni isloh qilish, o‘quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini o‘stirishga oid qarashlar, davlatimizning ta‘lim sohasidagi qarorlari, buyuk mutafakkirlarning yosh avlodni iqtisodiy tarbiyalashga doir fikrlari, zamonaviy pedagogika-psixologiya fanining natijalari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini maktabda iqtisodiy ta‘lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo ekanligi asoslandi;

- talabalarning iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga tayyorgarligining mavjud holati o‘rganildi;

- bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi iqtisodiy pedagogik faoliyat modellashtirildi;

- pedagogik-psixologik, tabiiy-matematik fanlarning talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini rivojlantirishga doir imkoniyatlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: bajarilgan ilmiy izlanishlar asosida pedagogika-psixologiya, tabiiy matematika fanlari mazmuniga talabalarni iqtisodiy tayyorlash bilan bog‘liq materiallarni singdirishga erishildi; ishlab chiqilgan

tavsiyalardan pedagogik xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish tizimida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi: dissertatsiya oldiga qo'yilgan muammoga ilmiy asoslangan yondashuv tadqiqot maqsadi, ob'ekti, predmeti, ilmiy farazlari, pedagogik vazifalar mohiyatiga mos ravishda ilmiy-tadqiqot metodlarini tanlanganligi; tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan talabalar sonining yetarli darajada ekanligida o'z aksini topdi. Talabalarni maktabda iqtisodiy-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash tadqiqot ishlari Samarqand Davlat Univrsiteti (SamDU), Jizzax Davlat Pedagogika Instituti (JDPI) "Pedagogika" fakultetlarida o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining tadbiiq etilishi:

SamDUda (2012-1013) o'tkazilgan ilmiy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda, "Ziyokor" jurnalida, Respublika konferensiyasida joriy qilindi.

Tadqiqot bosqichlari:

Birinchi bosqich 2011.09-2012.04da muammoning nazariy-amaliy asoslari, mavjud holat va bu sohadagi tarixiy tajribalar o'rganildi, tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

Ikkinchi bosqich (2012.05-2013.05)da talabalarni iqtisodiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, shakl va metodlar namoyon qilindi hamda yakunlovchi tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi, ularning natijalari asosida magistrlik dissertatsiyasi rasmiylashtirildi.

I BOB. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini iqtisodiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash - ilmiy pedagogik muammo sifatida.

1.1. Mustaqil respublikamizning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hozirgi kunda ta'lim va tarbiya oluvchi har bir o'quvchi yoshni hayotga yetarli darajada iqtisodiy savodxonlik bilan kirib kelinishini ta'minlash maqsadida ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarda iqtisodiy ta'lim va tarbiyani shakllantirishni ko'zda tutadi.

Iqtisodiy tarbiya tizimi o'z ahamiyatiga ko'ra mehnat resurslarini oqilona taqsimlashga, odamlarda xo'jayinlik, tejamkorlik, intizomlilik, ishlab chiqarishni amalda boshqarishda ishtirok etishga ehtiyoj, mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish kabi sifatlarni shakllantirishga muhim ta'sir ko'rsatishi zarur.

Shu boisdan ham o'quvchilarni iqtisodiy tarbiya tizimi davlat tashkilotlari, maktab, oila, baza korxonalar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy o'quv yurtlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, iqtisodiy tarbiya bilan bog'liq ilmiy va tashkiliy masalalarni uzluksiz va o'z vaqtida hal qilishi, o'quvchi shaxsiga iqtisodiy xarakterga ega bo'lgan ta'sirlarni kompleks loyihalashtirishni ta'minlashi kerak.

Respublikamizning jahon davlatlari hamjamiyatida tobora munosib o'rin egallab borayotgan hozirgi kunda shaxsning mehnat faoliyatini tanlashini, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda ijodiy mehnatni tanlashi, mustaqilligimizni mustahkamlashga qaratilgan ijodiy-iqtisodiy faollikka tayyorlash kabi ijtimoiy jarayonni boshqarish kabi dolzarb muammo vujudga kelmoqda.

Mamlakatimizda bozor infrastrukturasi tobora takomillashib borayotgan hozirgi davrda iqtisodiy tarbiya yangi sifat bosqichiga qo'yilishi kerak. Bu esa shaxsda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishishga yanada kengroq imkoniyat

yaratadi, jamiyatimiz esa ushbu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratadi demakdir; ilmiy-texnika revolyutsiyasi, aholini majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy qilinishi madaniy, kasbiy va umumta'lim darajasini ko'tarilishi kabi omillarni ta'siri natijasida iqtisodiy tarbiya murakkablashadi; jamiyatimizning dinamik ravishda rivojlanishi hamda ishlab chiqarishni tobora murakkablashib borishi natijasida iqtisodiy tarbiyani shaxsni boshqarishning zarur va imkon jarayoni sifatida qaraladi.

Biroq, o'quvchi yoshlarni iqtisodiy tarbiyalash ishi nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham yetarli darajada olib borilmayapti va kadrlar tayyorlash milliy dasturi qo'ygan vazifaga javob bermayapti. Hanuzgacha o'rta maktabni bitirayotganlar ta'limning keyingi bosqichiga yetarli savodxonlik bilan kirmayapti, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos kelmaydigan kasb (kichik mutaxassislik)larni tanlayaptilar, asosiy iqtisodiy tushunchalarni bilmaydilar va h.k.

Hozirgi bosqichda iqtisodiy tarbiya bilimning mustaqil sohasi hisoblanib, u pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya va boshqa fanlar tutashuvi natijasida shakllanmoqda.

O'quvchilar iqtisodiy tarbiyasiga tizimli yondashuvni amalga oshirish uchun fanlararo jihatini hisobga olishga imkon beradi, muammoni tizimli, tashkiliy va tartibli qismlarga bo'lish va yechish imkoniyatini ochib beradi. Ushbu yondashuv amalda iqtisodiy tarbiyaning maqsadi, vazifalari, funksiyalari, tuzilishi, ushbu jarayonning mazmunini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Mazkur metod iqtisodiy tarbiya jarayonini yaxlit, bir butun, uyg'un hamda kompleks o'rganishga imkon beradi. Umumiy holda tadqiqotni uch bosqich tarzida quyidagicha tavsiflash mumkin:

- sistema (tizim)ning tuzilishi va ishlash prinsiplarini tahlil qilish va tasvirlash;

- sistema (tizim) barcha tarkibiy qismlarining o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning o‘zaro bog‘lanishlarini va ichki tuzilishlarini tahlil qilish;

- o‘rganilayotgan sistema (tizim) va boshqa sistema(tizim)larning o‘xshashligi va bir-biridan ajralib turadigan tomonlarini namoyon qilish.

Murakkab ta’lim-tarbiya jarayoni sistemasini(tizim)ning boshqa sistema (tizim)lardan ajralib turadigan muhim xususiyati – bu uning element va tarkibiy qismlarini o‘zaro mustahkam aloqasi tufayli vujudga keladigan bir butunligi, yaxlitligidir. U holda pedagogik hodisa, jarayonlarni tadqiq qilishga sistemali yondashish deganda, biz pedagogik sistemada mavjud bo‘lgan barcha muhim ichki va tashqi aloqa va tizimlarini hisobga olishni, murakkab sistemaning tarkibiy qismi bo‘lgan ayrim pedagogik ob’ektlarni o‘rganishni, o‘quv-tarbiya jarayonini ko‘zda tutilgan aniq maqsadga samarali erishishida ularning har birining o‘rni va rolini namoyon qilishni tushunamiz.

Ushbu nuqtai nazardan talabarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish ishiga tayyorlash muammosi ma’lum maqsadlarga qaratilgan, bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan qator tizim va funksional komponentlardan iborat sistema sifatida qaralishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ushbu sistema o‘z navbatida o‘zidan kichik yana qator sistema(element)lardan tashkil topishi mumkin. Ushbu sistemalardan birortasi tahlil qilinganda, qolgan barcha sistema(element) u uchun tashqi muhit hisoblanadi. U holda tahlil qilinayotgan sistemani ushbu muhit bilan “aloqa” (o‘zaro ta’siri) uning “kirish” va “chiqish”lari orqali amalga oshadi.

Endi talabalarni maktabda o‘quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash ishiga tayyorlash sistemasini mazmun va jarayon nuqtai nazaridan qirqim (qatlam)larga ajratib qarashga o‘tamiz. Bunda biz ushbu sistemaning turlicha qirqimlari borligiga guvoh bo‘lamiz. Quyida ularning asosiy lariga to‘xtalamiz:

Iqtisodiy tarbiya – maktabning yagona bo‘lmagan muhim vazifalaridan biridir. U bilan politexnik ta’lim, mehnat tarbiyasi va kasb tanlash, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, ekologik tarbiya va h.k. vazifalar ham yonma-yon turadi. Maktabda

iqtisodiy tarbiyani ro'yobga chiqarish, moddiy boyliklardan oqilona, tejab-tergab foydalanish ishiga qancha to'g'ri yondashilsa, mehnat tarbiyasi, politexnik ta'lim, kasb tanlash va maktab oldida turgan ko'plab boshqa vazifalar ham shuncha osonroq va samaraliroq hal bo'ladi. Shu boisdan ham o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish sistemasi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan barcha asosiy vazifalar hal qilinadigan yaxlit o'quv-tarbiya jarayoni sistemasining elementi sifatida qaralishi mumkin. Masalaga bunday yondoshish, ularni bir-biriga ta'sirini hamda ushbu sistema uchun xarakterli bo'lgan tomonlarni namoyon qilishni taqozo etadi. Bu esa uni sistemaning umumiy funksiyasiga qo'shgan hissasini ta'minlaydi.

1. Iqtisodiy tarbiya bo'yicha maktab oldida turgan ish ko'p rejalidir. U butun pedagogik a'zolari: fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, maktab rahbariyati va h.k. tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik safarbarlikning ushbu sistemasidan uning har bir zvenosi(bo'g'ini)ning vazifasi va mazmuni ham bir-biri bilan mustahkam bog'langan va umumiy funksiyani bajarishga mo'ljallangan sistemachalar sifatida qaralishi mumkin.

2. O'qituvchini iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga tayyorlashning mazmuni va jarayoni sistemali yondashish nuqtai nazaridan tahlil qilinsa, u holda ushbu tayyorgarlik komponentlari sifatida (ya'ni, ushbu sistema o'z navbatida o'zidan kichik sistemalarga ajratilib qaralganda) quyidagi bosqichlar - pedagogik ta'lim, o'qituvchilar malakasini oshirish, ularning o'z-o'zlari ustida mustaqil ishlab bilim orttirishlarini o'zida aks ettirganliklarini ko'rish mumkin.

3. Oliy pedagogik ta'lim sistemasi ko'p funksiyali sistemadir, chunki u jamiyat tomonidan o'qituvchiga yuklatilgan barcha vazifalarni bajarish uchun bo'lajak o'qituvchining tayyorlanishiga xizmat qiladi. Ushbu umumiy sistemadan bo'lajak o'qituvchilarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash sistemasini ajratib olish va o'rganish mumkin.

4. Oliy pedagogik ta'lim mazmunida jamiyatshunoslik, psixologik-pedagogik, umumiy texnikaviy hamda mutaxassislik profili kabi turkumdagi o'quv predmetlari mavjud. Sistemali yondoshuv yuqorida keltirilgan o'quv predmetlar turkumlarining har birini sistema sifatida qarash orqali ushbu turkumlarni tashkil

etuvchi o'quv predmetlarining talabalarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga tayyorlashdagi imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Talabalarni maktabda iqtisodiy tarbiya ishini amalga oshirishga tayyorlashning biz tomonimizdan qayd etilgan komponentlari ushbu sistemalarning tashqi aloqalari borligidan dalolat beradi. Biroq yuqorida ko'rsatilganidek, sistema o'z funksiyasini to'liq bajarishi uchun uning ichki aloqalarini ham yoritish zarur.

Haqiqatdan ham V.G.Afanas'yev ta'kidlaganidek, sistemali atroflicha bilish uchun dastavval uning ichki tuzilishini o'rganish zarur, ya'ni sistemaning qanday komponentlardan tashkil topganligini, uning tuzilish va funksiyalari qandayligini va qanday kuchlar, omillar ushbu sistemaning yaxlitligini, bir butunligini, mustaqilligini ta'minlashini aniqlash lozim bo'ladi.

Bulardan tashqari sistemani tahlil qilish usuli har qanday sistema uchun umumiy bo'lgan quyidagi ob'yektlarni – "Pedagogik sistemaga kirish", "Pedagogik jarayon", "Pedagogik sistemadan chiqish", "Maqsad", "Teskari aloqa" va h.k.larni o'rganadi.

Talabalarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish ishiga tayyorlash sistemasining tashkil etuvchi komponentlarining asosiy xususiyatlarini atroflicha o'rganishdan oldin ushbu sistemaning "kirishi" va "chiqishi" haqida to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik sistemaning "Kirishi"da iqtisodiy tarbiyasi turlicha bo'lgan abiturientlar olinadi. Ammo, ularda o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan pedagogik faoliyatni olib borish uchun zarur bilim va ko'nikmalar yo'q. Pedagogik sistemaning "Chiqishi" esa oliy maktab bitiruvchilari – maktabda o'quv-tarbiya ishini, shu jumladan, o'quvchilarning iqtisodiy tarbiyasini amalga oshirishga kasbiy tayyorgarligi bilan xarakterlanadi.

Talabalar iqtisodiy tayyorgarligi mazmuniga o'quvchilarning iqtisodiy tarbiyasi va uslubiyati elementlari daxldor bo'lib, ular oliy maktab o'quv-tarbiya jarayonining barcha bo'g'inlarida shakllanadi.

Ma'lumki, pedagogik sistemaning mavjudligini aniqlash bo'yicha qo'yiladigan galdagi qadam – bu talabalarni maktabda iqtisodiy tarbiya ishiga tayyorlashning ichki komponentlarini tavsiflashdan iboratdir. Prof. N.V.Kuzminaning ta'kidlashicha, har qanday pedagogik sistema tuzilishi jihatdan quyidagilarni o'z ichiga oladi: maqsad, o'quv va ilmiy axborot, pedagogik muloqot vositalari; o'quvchilar va pedagoglar [2.27].

1. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tayotgan hozirgi sharoitda anglangan ehtiyoj sifatidagi pedagogik maqsad bu holda mavjud. Iqtisodiy ongi shakllangan, mamlakatimiz iqtisodiy hayotida bozor munosabati talablariga mos ravishda harakat qiladigan, o'z ishini sifatli va samarali bajaradigan va unga intiladigan, kam harajat qilib yuqori iqtisodiy natijalarga erishish asosida xo'jalik yuritishni o'ziga odat qilib olgan o'quvchi yoshlarni iqtisodiy tarbiyalashga jamiyatimiz katta ehtiyoj sezmoqda. Shu boisdan ham oliy o'quv yurti talabalariga maktabda o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash ishini muvaffaqiyatli olib borishga o'rgatish nihoyatda dolzarb bo'lib, u pedagogik ta'limning eng muhim vazifalariga javob beradi.

2. Mazkur pedagogik tizimda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ma'lum o'quv va ilmiy axborotning mavjudligi ham biz muhokama qilayotgan masalaga javob beradi. Iqtisodiy tarbiya bo'yicha olib borilishi zarur bo'lgan ishning mazmuni tegishli pedagogik ta'lim mazmunini tuzishda dastlabki axborot hisoblanadi (yaxlit pedagogik tizim mazmunining tarkibiy qismi sifatida).

3. Pedagogik tizim oldida turgan maqsadni amalga oshirishga imkon beradigan pedagogik muloqot vositalarining borligi.

Oliy maktab faoliyatida talabalarga maktabda iqtisodiy tarbiyani ro'yobga chiqarishini o'rgatish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan. Asosan, bu tajriba pedagogik-psixologik tayyorgarlik (maxsus kurslar, fakultativlar, talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari va h.k.) bilan bog'liq. Galdagi asasiy vazifa mazkur tajribaga pedagogik eksperiment o'tkazish orqali ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar hamda mutaxassislik kurslarining axborotlarini "qo'shimcha ravishda qurishdan" iboratdir.

4. Mazkur pedagogik tizimda yuqorida ko'rsatilgan tayyorgarlikka ehtiyoj sezayotgan odamlarning ma'lum komponentini mavjudligini (biz qarayotgan masalada – bu oliy o'quv yurti talabalari) ham sharhlab va isbotlab berishni taqozo etmaydi.

5. Ushbu ishda muhokama qilinayotgan pedagogik tizimning – talabalarga maktabda o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash ishini o'rgatish tizimining zaruriy komponenti sifatida oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilarining mavjudligi talabini ham qanoatlantirishga hech qanday shubha yo'q. Chunki, ular talabalarga o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash ishini o'rgatishda auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, pedagogik va ishlab chiqarish amaliyotlari orqali faol ishtirok etadilar.

O'z navbatida ushbu sistema o'zining yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qism (komponent)lari tomonidan qaralishi va tahlil qilinishi mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga sistemachasida uning quyidagi sistemalarini belgilab olish mumkin: ijtimoiy tayyorgarlik (iqtisodiy tarbiyaning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy ahamiyati), psixologik-pedagogik tayyorgarligi (iqtisodiy tarbiya ishining mohiyati, maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl va vositalarini tushunish hamda vazifalarni amalda hal qilish) va ilmiy-texnikaviy tayyorgarlik (iqtisodiy tarbiyani politexnik prinsip asosida amalga oshirish). Galdagi vazifa ushbu tizimni oliy maktab o'quv rejasi imkoniyatlari bilan taqqoslashdan iborat.

Psixologik-pedagogik tayyorgarlikka o'qituvchining maktabda iqtisodiy tarbiya berish uslubiyati masalalarini ham qo'shish zarur. U holda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish bilan bog'liq talabalarning psixologik-pedagogik tayyorgarligi psixologik-pedagogik va metodik predmetlar hamda barcha turdagi pedagogik amaliyotlar orqali ta'minlanadi.

Talabalar uslubiy tayyorgarligi ularga iqtisodiy tarbiyani predmet bo'yicha darslarda va sinfdan tashqari ishlarda amalga oshirishni ta'minlash zarur. Maktab

o'qituvchilari o'zlarining amaliy faoliyatlarida iqtisodiy tarbiyaga doir quyidagi vazifalarni hal qilishlari zarur: darsda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda, sanoat, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarishning zamoniviy texnikasi va texnologiyasi, ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari va yutuqlari izchil hamda mazkur ilmiy-texnikaviy yangiliklarning xalq xo'jaligiga beradigan natijasi, istiqboldagi iqtisodiy samarasi bilan izchil tanishtirish orqali o'quvchilarning politexnikaviy tayyorgarligining tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy ta'lim va tarbiyani amalga oshirish;

- darsda, sinfdan va maktabdan tashqari ishda o'quvchilarda iqtisodiy ong, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tejamkorlik, intizomlilik, ishchanlik kabi iqtisodiy faoliyat uchun muhim sifatlarni shakllantirish maqsadida respublikamizning xalq xo'jaligi yetakchi tarmoqlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, mazkur ko'rsatkichlarning tez sur'atlar bilan o'sishida sanoat va qishloq xo'jaligi ishchi-xizmatchilari, injiner-texnik xodimlari, qishloq xo'jaligi xodimlari, mexanizatorlarning mehnati va iqtisodiy faoliyatini ko'rsatib berish;

- maxsus masala va topshiriqlarning iqtisodiy tarbiya bo'yicha imkoniyatlarini hisobga olib, o'quvchilarning o'zlarini hayotida uchraydigan vaziyatlar, ularning o'qishi, mehnati bilan bog'liq amaliy xarakterdagi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish;

- iqtisodiy mazmundagi masalalar tuzish uchun zarur ma'lumotlarni izlashga va ular asosida turli-tuman masalalar tuzishga o'quvchilarning o'zlarini jalb qilish;

- umumta'lim predmetlari bo'yicha darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda turli-tuman axborot manbalaridan to'plangan iqtisodiy tushuncha va kategoriyalar, faktik materiallardan doimiy ravishda foydalanish orqali o'quvchilarda "iqtisodiy folklor bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

- o'quvchilarni ijtimoiy foydali, unumli mehnatga jalb qilish jarayonida ularni bajarilgan ish hajmi birligiga narx qo'yishga, ta'mirlash jarayonida maktab mablag'larini tejashni hisoblab chiqarishning yig'ma jadvalini, o'quvchilar mehnatiga beriladigan ish haqi qaydnomasi tuzishga va h.k. ga jalb qilish;

- fan asoslari bo'yicha sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni o'z o'quv va shaxsiy vaqtini tejashga o'rgatish, ularda o'z ish o'rini to'g'ri tashkil etish, mehnat havfsizligiga rioya qilish ko'nikmasini shakllantirish;

- o'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash bo'yicha ishlarni samaradorligini yanada oshirish maqsadida maktab va oila, mahallani bu sohadagi hamkorligini mustahkamlashda, tasodifiy tadbirlar o'rniga puxta o'ylab rejalashtirilgan iqtisodiy tarbiyaning kompleks tizimiga o'tish;

- ota-onalar iqtisodiy savodxonligini oshirishga qaratilgan pedagogik o'qishlar dasturini (har bir o'quvchi ota-onasi uchun) ishlab chiqish (masalan, o'quvchida mehnatni ilmiy tashkil qilish elementlari; oila byudjeti, yosh avlod hayotida tejamkorlik; non, elektr energiyasi, suv, gaz, tabiiy resurslarga tejamkorlik munosabatini tarbiyalash; mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish; bolalar mehnatini normalash; va h.k.);

- o'quvchida sifatli va samarali ishlash ko'nikmasini va shunday ishlashga intilishni, jamiyat manfaatlari uchun kam harajat qilib yuqori samaraga erishishga imkon beradigan xo'jalik yuritish odatlarini shakllantirishni modellashtirishi va o'quv-tarbiya jarayonida maktab bitiruvchisini zaruriy iqtisodiy madaniyatga muvaffiqiyatli erishishni ta'minlash; va h.k.;

- o'quvchilar iqtisodiy tayyorgarligining samaradorligini oshirish maqsadida predmetlararo aloqalarni o'rnatishi, bunda o'quv rejasidagi har bir predmetning o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirish bo'yicha aniq hissasini aniqlashi hamda asosiy iqtisodiy tushunchalar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash jarayonida o'quv predmetlari orasidagi bog'lanishlarni ro'yobga chiqarishni metodik priyemlarini namoyon qilishi; predmetlararo oloqalarni amalga oshirishning imkon bo'lgan shaklida ilgari o'rganilgan predmetlar, bir vaqtning o'zida o'rganilayotgan predmetlar, keyin, istiqbolda o'rganiladigan predmetlar o'rtasida o'rnatiladigan bog'lanishlarni ta'minlovchi darsdan tashqari tadbirlar tizimini ishlab chiqishi;

- mustaqillik yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'lga kiritilgan yutuqlarni o'rganishga yo'naltirilgan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda –

mavzuli kechalar, iqtisodiy bilimlar kunlari, viktorinalar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari va h.k. tashkil etish va o'tkazishda mahalla, ishlab chiqarish jamoalari bilan hamkorlik qilish;

- o'quvchilarda mehnatga, ayniqsa, moddiy boyliklarni tejab-tergab ishlatishga bevosita bog'liq bo'lgan mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash;

- maktab o'quv-tajriba uchastkasida, mehnat va dam olish oromgohlarida, o'quvchilar mehnat birlashmalarida, oilaviy pudrat, fermer ho'jaliklarida va hokazolarda o'quvchilarning ishlab chiqarish, texnikaviy ijodkorlik hamda mehnat, iqtisodiy faoliyatlarini tashkil etish orqali ularda umumiy mehnat, maxsus malaka va ko'nikmalar bilan uzviy ravishda mehnatni rejalashtirish, mehnat unumdorligi va mahsulot sifatini oshirish kabi iqtisodiy faoliyatga doir bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish bo'yicha talabalarning ijtimoiy tayyorgarligi - O'zbekiston xalqlari tarixi, falsafa va h.k. predmetlarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy fanlar turkumi bilan ta'minlanadi. Talabalarni maktabda iqtisodiy tarbiyani ro'yobga chiqarish ishiga rahbarlik qilishga tayyorlash vazifalarini yuqorida ko'rsatilgan predmetlar imkoniyati bilan solishtirish orqali ushbu tayyorgarlikning hozirgi kundagi holati va kelgusidagi rivojlanishi haqida hukm chiqarish mumkin.

Maktabda iqtisodiy tarbiya ishiga talabalarning ilmiy-texnikaviy tayyorgarligi esa oliy maktabda ushbu turkumga kiruvchi o'quv predmetlarini o'rganish bilan bog'langan. Oliy maktabni bitirib chiquvchilar – fizika, biologiya, matematika, mehnat ta'limi, pedagogika va boshlang'ich ta'lim uslubiyati o'qituvchilari va b.q. bir-biridan ushbu tayyorgarlikni (oliy maktabda ta'limning barcha profil(mutahassislik)lari uchun yagona bo'lgan psixologik-pedagogik va ijtimoiy tayyorgarliklaridan farqli o'laroq) qanday hajm va mazmunda egallanganliklari bilan farq qilada.

Yuqorida bayon qilingan materialdan ko'rinadiki, agar predmet o'qituvchisi iqtisodiy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tasavvur qila olmasa va ulardan o'z

mashg'ulotlarida samarali foydalana olmasa, predmet bo'yicha darslik uchun politexnik mazmundagi didaktik materiallarni tanlash va ulardan unumli foydalanish hamda iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan darslar uslubiyatini ishlab chiqish malakasiga ega bo'lmasa, u holda uning iqtisodiy tarbiyani tashkil etish bo'yicha faoliyatini ijobiy baholash juda qiyindir.

Iqtisodiy tarbiyani barkamol avlod tarbiyasining alohida bir tarkibiy qismi sifatida qarash va o'rganish mumkin. Mazkur sohada izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar iqtisodiy tarbiya deganda jamiyat rivojlanishining iqtisodiy qonuniyalari haqida aniq tasavvurni tarkib toptirishni va shu asosda shaxsga ishlab chiqarish - iqtisodiy faoliyatda va moddiy ishlab chiqarishdan tashqari(kundalik hayot)da zarur bo'lgan iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish tizimini tushunadilar.

Shu munosabat bilan iqtisodiy tarbiya tizimi yosh avlodning ta'limi va tarbiyasi bilan bog'liq barcha vazifalarni hal qiladigan yaxlit o'quv-tarbiya jarayonining bir qismchasi sifatida qaralishi va o'rganilishi mumkin.

O'quvchi-yoshlarni iqtisodiy tarbiyalash muammosi, asosan mustaqillik yillarida ilmiy asoslangan xarakterga ega bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Chunki, mustaqil respublikamizning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi munosabati bilan tadqiqotchi olimlar orasida mazkur muammoga bo'lgan qiziqish tez sur'atlar bilan oshib bormoqda.

II BOB. Talablarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga pedagogik – psixologik va umumkasbiy tayyorgarligining mazmuni, shakl va vositalari.

2.1. Talabalarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga pedagogik – psixologik tayyorgarligi.

Kuzatishlarimizning ko‘rsatishicha pedagogik profilidagi oliy o‘quv yurtlarida talabalarni iqtisodiy tayyorgarligi “Pedagogika fani nazariyasi va tarixi” fani zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, u pedagogika nazariyasining quyidagi mavzu va savollarini o‘rganish jarayonida amalga oshiriladi. Jumladan, “Pedagogika fan sifatida. Uning predmeti, maqsad va vazifalari” mavzusining “...pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari...” savollarini o‘rganish jarayonida o‘qituvchi talabalarni “ta’lim”, “tarbiya”, bilim, ko‘nikma va malakalar, rivojlanish kabi kategoriya va tushunchalarning mazmuni bilan parallel ravishda “iqtisodiy ta’lim”, “iqtisodiy savodxonlik”, iqtisodiy tarbiya”, “iqtisodiy tarbiyalanganlik”, “iqtisodiy ko‘nikma”, “iqtisodiy malaka”larning mazmun-mohiyatini yoritib borishi, ularni maktabda iqtisodiy tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda asqotadi. Shu munosabat bilan maskur kategoriya va tushunchalarning ta’rifini keltiramiz. **Iqtisodiy tarbiya** – jamiyatning shaxsga mustaqil faoliyatida samarali ko‘rsatgichlarni ta’minlovchi aniq iqtisodiy tushunchalar, iqtisodga bog‘langan siyosat, qonuniyatlar, asoslar va ularning amalda faoliyati, yo‘l-yo‘riqlarning yig‘indisini o‘zlashtirishga imkon beruvchi, izchil, maqsadga muvofiq ta’sirdir.

Iqtisodiy ta’lim ijodkor shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini uzluksiz, izchil, maqsadga ko‘ra shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, turli uslub, aniq dastur, metodikalar bilan yetkazish jarayonidir.

Iqtisodiy savodxonlik – mustaqil faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini tarkib toptirish har bir shaxsning jamiyatda mavjud bo‘lgan darajasini oshirishga, shaxsiy ehtiyojini qondirishga yordam beruvchi samarali faoliyat bilan shug‘ullanishini ta’minlovchi iqtisodiy bilim, ko‘nikma, malaka, yo‘naltiruvchi qoida, uslublar majmuidir.

Iqtisodiy tayyorgarlik – shaxs shakllanishida talab, ehtiyoj va imkoniyatga ko‘ra tanlangan sohalar, kasblar, mutaxassislik bo‘yicha maxsus iqtisodiy, nazariy va amaliy bilimlar yig‘indisini tarkib toptirish. O‘zlashtirilgan aniq iqtisodiy nazariy va amaliy bilimlar mustaqil faoliyatda samara berishga kafolatlar, ya’ni aniq iqtisodiy ma’lumotlar.

Iqtisodiy tarbiyalanganlik -shaxs kamolotini belgilovchi axloqiy sifatlar bo‘lib, kishilarning faoliyatidagi xuquqiy siyosati asosida namoyon etilishi iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasi – shaxs xatti-harakatidagi samarali, ijtimoiy foydali faoliyat natijalari hayot talabi ekanligini anglash bilan belgilanadi.

“Pedagogik nazariyasi va tarixi” namunaviy dasturi mazmunini bo‘lajak oshlang‘ich sunf o‘qituvchilarni iqtisodiy tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalari bilan qurollantirish nuqtai nazaridan tahlil qilinganda uning qator mavzularida shunday imkoniyatlar mavjudligi namoyon qilindi. Ular jumlasiga quyudagu mavzu va savollarni kiritish mumkin: “Tarbiya maqsadi va vazifasi” (... intellektual (aqliy), ... ma’naviy – axloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, estetik tarbiyasi...); “Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o‘quvchilarni aqliy tarbiyalash” ... iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. Bozor munosabatlari hamda iqtisodiy islohotlar sharoitida tarbiyaning vazifalari va mazmuni”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov jamiyatni yangilash sharoitida iqtisodiy tamoyillar haqida. Dars, darsdan tashqari mashg‘ulotlar va oilada iqtisodiy tarbiya”; “Mehnat tarbiyasi” (... odamlarda ongli mehnatkash, mulkdorlik psixologiyasini shakllantirish ... Bozor munosabatlarini rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar sharoitida o‘quvchi yoshlarni iqtisodiy tarbiyalash vazifalari, metodlari va mazmuni...) o‘rgatishga bevosita yo‘naltirilgan.

Iqtisodiy tarbiya barkamol avlodni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida tarbiyaning boshqa yo‘nalishlari bilan dialiktik o‘zaro bog‘liqlikda va birlikda bo‘ladi.

Mehnat tarbiyasi va iqtisodiy tarbiyaning birligi qaralganda biz mehnat tarbiyasi motiv(vaj)lari va talablari asosida iqtisodiy rag‘bat omillari yotganini

ko‘ramiz. Mehnat insonning hayotiy ehtiyojiga aylangan bozor iqtisodiyoti sharoitida, uning o‘tib boruvchi talablarini qondirishga xizmat qiladi. Mehnat tarbiyasi esa, odamni mehnatga tayyorlab mazkur talablarni iqtisodiy imkoniyatlar, yetuk me‘yorlarga mos ravishda shakllantiradi.

Mehnat va iqtisodiy tarbiyada mehnat taqsimoti va koperatsiyasi, rejalashtirish, me‘yorlash, hisobga olish, nazorat, moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish, musobaqa uyushtirish kabi iqtisodiy kategoriyalar hisoblangan vositalardan keng foydalaniladi.

Iqtisodiy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, mehnat tarbiyasi insonni mehnat mahsulotlariga bo‘lgan o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiat bilan ishlab chiqarish munosabatlariga kirishga da‘vat etsa, iqtisodiy tarbiya esa tashkil etishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Iqtisodiy tarbiya o‘quvchi yoshlarni iqtisodiyot nazariyasi bilan qurolantiradi, ishlab chiqarishda faol ishtirok etish, mehnatga iqtisodiy anglangan munosabatda bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchi yoshlarni nafaqat ishlab chiqarish sohasida samarali mehnat qilishga, balki mehnat jarayonida tayyorlangan moddiy boyliklarni taqsimlash, almashuvi va iste‘mol qilishida qatnashishiga ko‘maklashadi.

Iqtisodiy tarbiyaning axloqiy tarbiya bilan o‘zaro aloqadorligi mavjud. Iqtisodiy va axloqiy tarbiya o‘quvchi yoshlarda mehnatga va mulkka ijobiy munosabatni tarkibining umumiy masalalarini hal qiladi, ularda tejamkorlik, iqtisodiy hisob–kitob qilish, ishbilarmonlikni shakllantiradi. O‘quvchi yoshlarda mazkur sifatlarni shakllantirish ularning iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalariga asoslanadi va u jamiyatimizning manfaati va talablari bilan bog‘langan.

Axloqiy tarbiyada asosan ma‘naviy rag‘batlantirish ustuvor bo‘lsa, iqtisodiy tarbiyada moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirishni birga qo‘shib olib borishni ko‘zda tutadi.

Iqtisodiy tarbiyaning “Pedagogik nazariyasi va tarixi” kursi o‘quv dasturiga kiritilgan boshqa tarbiyaviy faoliyat shakllari va turlari bilan bog‘liq aloqalarini “Huquqiy tarbiya”, “Ma‘naviy tarbiya”, “Nafosat tarbiyasi”, “Jismoniy tarbiya”

kabi mavzularni o'rganish jarayonida talabalarga yoritib beriladi. Jumladan, "Nafosat tarbiyasi" mavzusini o'rganish jarayonida pedagogika kafedrasida o'qituvchisi estetik tushuncha va didlarni shakllantirishni uning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligini, shaxs va jamiyatning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olmasdan amalga oshirib bo'lmashligini talabalarga aniq misollarda ko'rsatib beradi. Estetik va iqtisodiy tarbiyaning o'zaro mustahkamligi, birinchi galda ana shunga bog'liqdir. Bundan tashqari, u mehnat estetikasida va ishlab chiqarishda namoyon bo'lib, mehnat jarayonini gumanizatsiyalashtirish, uning samaradorligi va sifatini oshirish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi. Shu vaqtni o'zida mehnatni oqilona tashkil etish, mehnat samaradorligi va sifatini oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishni shaxsning estetik darajasini rivojlantirishga ta'sirini bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga isbotlab berish joiz.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida o'quvchi yoshlarni iste'mol qilish estetikasini shakllantirish masalasi juda dolzarb bo'lib borayotganligiga talabalar diqqatini jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko'rsatilgan kursning "Jismoniy tarbiya" mavzusini o'rganishda bo'lajak o'qituvchilarga jismoniy tarbiyani mehnat unumdorligini oshishiga qulay sharoit yaratib berishi aniq misollarda tushuntirib beriladi. Ularga jismoniy tarbiyaning ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyati ana shundan iborat ekanligi isbotlab berildi. Shuning bilan birgalikda fizkultura va sport sohasida yuksak ko'rsatgichlarga erishishni moddiy bazasini, zamonaviy komplekslarsiz tassavur qilib bo'lmashligini ta'kidlash barobarida talabalar diqqati istiqbol yillarida Prezidentimiz rahnamoligida rivojlangan mamlakatlar andozalariga mos keladigan sportning barcha turlari bo'yicha o'yingohlar qurilganligini, mamlakatimizda Evropa va Osiyo ko'lamidagi sport musobaqalari o'tkazilayotganligiga jalb qilindi.

Shu boisdan ham talabalar kelgusi pedagogik faoliyatida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda xalqimiz tomonidan yaratilgan ana shunday moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalashga alohida e'tibor berishi uqtirildi. O'z-o'zidan ravshanki, sport bilan shug'ullanish vaqtni tejash, vaqt

byudjetini oqilona tashkil etish malakalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Shu asnoda bo'lajak o'qituvchilarga jismoniy madaniyat o'quvchilarda oqilona iste'mol qilinishi, o'zining sog'lig'ini asrab-avaylashga intilishi, zararli odatlarga qarshi kurashishda hamda ularni kashandachilik va alkogolizmga nafrat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash, ushbu iqtisodiy sifatlarni shakllantirish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatish barobarida, ularga bu sohada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni, shakl, usul va vositalari bo'yicha tavsiyalar berildi.

"Pedagogika nazariyasi va tarixi" kursining "Ekologik tarbiya... ekologik ong va madaniyatni shakllantirish. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar hamda oilada ekologik tarbiya shakl va metodlari" savollarini o'rganish jarayonida mazkur masalani milliy pedagogikamiz nazariyasi va amaliyotida o'rganish endi shakllanayotganligi talabalarga ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Ekologik ta'lim-tarbiya va iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning umumiyliigi va o'zaro aloqasi esa tamomila yangi, shu bois, deyarli ishlab chiqilmagan pedagogik muammo ekanligi talabalarga uqtirildi. U atrof muhitni muhofaza qilish zarurligi, tabiat va texnologik jarayonlarni bir-biriga ta'siri va o'zaro bog'liqligi bilan asoslab berildi. Mazkur muammoning asosi bo'lib, davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, uning ekologik yo'nalishi hisoblanishini alohida ta'kidlash zarur.

Iqtisodiy tarbiya ahloqiy tarbiya bilan ham o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiyaning mazkur shakllari o'zaro bir-birini to'ldiradi, boyitadi va mehnat ta'limi jarayonida sifat jihatdan takomillashib boradi.

Maktabda o'quvchilarning iqtisodiy tarbiyasi mehnat tarbiyasidan ajralmagan holda amalga oshiriladi. Chunki, mehnat jarayonida o'quvchilarning iqtisodiy bilimlari ularga yaratuvchilik xarakterini bag'ishlaydi. O'quvchilarning mehnat faoliyati jarayonida ularda o'z ishlarini rejalashtirish, mehnat hajmini me'yorlash, moddiy resurslarni tejash, yuqori unumli va sifatli mehnat qilishga intilish, bajarayotgan ishiga ma'suliyat bilan yondashish ko'nikmalari kabi iqtisodiy sifatlarni kamol topib borishini talabalarga aniq misollarda isbotlab berildi. Bunda "Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish" ta'lim yo'nalishi

talabalarining qishloq xo‘jalik otryadlarida orttirgan tajribalariga tayanish kafedra o‘qituvchisining bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini o‘quvchilarga iqtisodiy tarbiya berishga tayyorlash bo‘yicha vazifasini birmuncha engilashtirdi.

Talabalarining unumli mehnat jarayonida ularning iqtisodiy tayyorgarliklarini shakllantirish bo‘yicha olib borgan izlanishlar tahlillari shundan dalolat beradiki, bu jarayonda ularning estetik tasavvurlari bilan ahloqiy tasavvurlarini qo‘shilib ketishini, bu esa o‘z navbatida ularda mehnatsevarlik, intizomlilik kabi iqtisodiy sifatlarni tez sur‘atlar bilan shakllanishini kuzatish mumkin.

Haqiqatdan ham mehnat qilish, uning natijalaridan qoniqish, talabalarga estetik zavq bag‘ishlaydi va estetik kechinmalarni rivojlantiradi. Mehnatdagi muvaffaqiyatlarni his qilish talabalarda voqelikka estetik yondashishni, hayotdagi go‘zallikni tushunishni o‘stirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Talabalarining mehnatdan olgan quvonchi, ularda go‘zallikni ko‘rish, tushunish va his qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun hayotda go‘zallik yaratishga intilishni tarkib toptirish uchun zarur bo‘lgan manbalardandir. O‘z-o‘zidan ravshanki, mazkur sifatlarga ega bo‘lgan talabalarni mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatlilik kabi axloqiy irodaviy xususiyatlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Yuqorida ko‘rsatilgan fanning “Pedagogika tarixi” bo‘limida ham bo‘lajak o‘qituvchilarni iqtisodiy g‘oyalar, fikrlar, ta‘limotlar bilan tanishtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Mazkur bo‘limning “Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta‘lim-tarbiya va pedagogik fikrlar”, “VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti” mavzularini o‘rganish jarayonida talabalarni Qur‘oni Karimda shariat qonunlari qatoriga mehnatning hamma uchun zarurligi, taqsimotda adolatlilik, tijoratda insof, daromadning halolligi, o‘g‘rilikning gunoh ekanligi, nochor, yetimlarga shavqat va moddiy yordam kabi olg‘a surilgan g‘oyalar bilan tanishtiriladi.

Shuningdek, hadis ilmi, Ismoil al-Buxoriyning “Al jome’ as-Saxih” asari va b.q. sharq madaniyatining buyuk obidasi sifatida uzoq tarixga ega bo‘lib, ular o‘zlarining falsafiy mazmuni bilan kishilarning ma’naviy, iqtisodiy madaniyatini

shakllantirishdagi boy imkoniyatlari bilan talabalarni tanishtirish uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlash lozim.

“VII asrdan XIV asrning birinchi yarmi” mavzusini seminar mashg'ulotida o'rganish jarayonida boshlang'ich maktabning “Odobnoma” darsida “Isrofdan yaxshilik yo‘q” deb Qur'oni Karimning “A'rof” surasining 31-oyatida bayon qilingan “Yenglar, ichinglar, lekin isrof qilmanglar”, degan Alloh taoloning amriga maktab kutubxonasida, o'quv xonalarida, oshxonada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar qanday amal qilayotganliklarini ko'rsatish maqsadida ularga kelgusi faoliyatlarida iqtisodiy reydlar o'tkazib turishni, bunda oziq-ovqat, suv, elektr energiyasi, gazdan foydalanilganlikning holati to'g'risida to'plangan materiallarni tahlil qilish orqali o'quvchilarga isrofdan saqlanish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berish mumkinligi ta'kidlandi. Shuningdek, seminar mashg'ulotlarida kafedra o'qituvchisi talabalarga har bir o'quvchi uchun eng qimmatli bo'lgan vaqtni behuda o'tkazmaslik, yoshlik chog'idanoq sog'lig'ining qadriga yetmaslik, salomatlikka xavf tug'diradigan odatlarga mukkasidan tushish ham isrof ekanligini uqtirish va uni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berishi ularning kelgusi faoliyatlarida asqotadi.

Yuqorida bayon qilingan tavsiyalar talabalarga kelgusi faoliyatlarida boshlang'ich sinflar darsliklarida, masalan IV sinf “Odobnoma” sida bayon qilingan “Vaqtning ketdi – naqding ketdi”, “Kulish madaniyati”, “Zararli xulq va odatlar”, Abu Rayhon Beruniyning “Bir minut vaqtni behuda o'tkazganim – halok bo'lganim” hikmati, “Og'izni katta ochib beo'xshov kulish odobdan emas” kabi mavzularni o'quvchilarga o'rgatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida “Isrof” tushunchasini shakllantirish uchun Qur'oni Karim, hadislariga tez-tez murojat qilishda asqotadi.

Iqtisodiy tarbiya tarixida Movoraunnahrda ilk uyg'onish davrini boshlab bergan ulug' allomalarimiz Abu Nosr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va boshqalarning umum pedagogik hamda didaktik g'oyalarini taxlil qilish jarayonida ularning jamiyatni paydo bo'lishi, yashash va rivojlanish qonuniyatlari, xarajatlar, mulk taqsimoti, ularni to'g'ri va samarali taqsimlash,

extiyolar, ularning cheksizligi, qondirilishi, iqtisodiy hamkorlik, tijorat, savdo munosabatlari kabi iqtisodiy kategoriyalar haqidagi fikr va ta'limotlari hozirgi vaqtda ham muhim ahamiyat kasb etib, bo'lajak o'qituvchilarning iqtisodiy ongi, tafakkurini rivojlantirish barobarida ularning o'zliklarini anglashlari va milliy qadriyatlarimizni tiklashda asqotishini ta'kidlash lozim. Bu esa OO'Yu da talabalarni kelgusi pedogogik foliyatlari uchun muhim bo'lgan "Tabiatshunoslik asoslari", "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi", "Mehnat ta'lim va uni o'qitish metodikasi" va h.k. fanlarni o'rganish jarayonida ularni Beruniy tamonidan bundan 1000 yil avval ishlab chiqilgan usullari ya'ni pul-tovar munosabatlarini yanada rivojlantirish, turli hududlarda zarb qilingan tanga pullar o'rtasidagi haqiqiy nisbatlarini aniqlash, ularni o'zaro almashtirishda adolatli asoslarga ega bo'lish, shuningdek, tanga pul yasashdagi mavjud qallobliklarni oldini olish uchun, ya'ni turli metallardan yasalgan tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning haqiqiy miqdorini aniqlashni, mazkur fanlarning amaliy mashg'lotlarida tajribada sinab ko'rish bo'yicha loyihalar taqdimotini tashkil etishni va muhokama qilishni taqozo etadi.

Sababi, har bir mustaqil davlatning pul chiqarish korxonasi ega bo'lishi, jahonning barcha davlatlari bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni taboro chuqurlashib va kengayib borayotganligi tufayli har bir fuqaroning maktab yoshidanoq so'm, dollar, rubl, evro, sterling kabi pullarning belgilari, sotib olish qobiliyatlarini, ular o'rtasidagi haqiqiy munosabatlarni, bir davlatning pul belgisida bo'lgan qadrsizlanish, boshqa davlatlarning pul belgilariga ta'sirini bilishini talab etmoqda.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini maktabda iqtisodiy ta'lim-tarbiyani amalga oshirishiga tayyorlashda Kaykovusning "Qobusnoma" [2.23] asarining keng imkoniyatlaridan foydalanish lozimligini ta'kidlash joizdir.

Mazkur imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishning yo'l-yo'riqlaridan biri, bu "Qobusnomada" bayon qilingan iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga oid pand - nasihatlarni boshlang'ich ta'lim mazmuniga singdirish bo'yicha pedagogika kafedrasida ishlab

chiqilgan ayrim ishlanma, tavsiyalar na'munalarini talabalar e'tiboriga taqdim etishdir.

O'z-o'zidan ravshanki, bunday ishlanma, tavsiyalardan talabalar kelgusi pedagogik faoliyatlarida samarali foydalana olishlari uchun ulardan Kaykovusning o'z farzandiga qarata aytgan pand nasihatlarining mazmun-mohiyatini to'liq tushunib olishlari talab etilishi tabiiy bir holdir. Ushbu maqsad uchun "Ikki qismlik kundalik" faol ta'lim tizimi asqotadi. Bunda talabalarga kundalikning birinchi qismiga Kaykovusning o'g'liga qarata *"Ey farzand, o'zingni mol jamlashga g'ofil tutmagil, ammo halollik bilan mol to'plashga harakat qil, mol uchun o'zingni xavf – xatarga qo'yma. Molni jam etganingdan keyin yaxshi saqlagil va har bir yaramas ish uchun sarf qilaverma, chunki molni saqlash yig'ishdan qiyindir..."* [2.23,46 b] deb aytgan nasihatlarini yozib olishlari tavsiya etilsa, uning ikkinchi qismiga ushbu pand nasihatlarining har birining mazmuni talabalar tomonidan izohlab berilishi talab etiladi.

Pedagogiga kafedra professor-/o'qituvchisi rahbarligida guruh bilan birgalikda muhokama qilingan to'g'ri izohlashlar "Pul va molu-dunyoni halollik va poklik bilan to'plash, uni yomon ishlar uchun sarf qilmaslik kerakligini, mol-dunyo bebaho narsa bo'lsa ham, bugun bor, ertaga bo'lmasligini, mol-dunyoni yiqqandan keyin uni saqlash, kerakli joyda ishlatish, ko'paytirishni ham bilish lozim"ligi kundalikning ikkinchi qismiga yozib qo'yildi.

Shuningdek, Qaykovusning mehnat evaziga orttirilgan barcha narsalarga tejamkorlik va jonkuyarlik bilan munosabatda bo'lish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik natijasida farovonlikka erishish mumkinligi to'g'risidagi fikrlari ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga maktabda o'quv jihozlarini asrash, elektr, gaz, suv, oshxonada non mahsulotlarining isrofgarchiligini oldini olish maqsadida muntazam ravishda iqtisodiy reydlar o'tkazishda o'quvchilar iqtisodiy postini tomonidan o'quv jihozlarini saqlanish holati, o'quv xonalarida bolalar mehnatini to'g'ri tashkil etish va h.k. bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va maktab iqtisodiy ta'lim-tarbiya tizimiga tegishli tuzatishlar kiritishda asqotadi.

Bulardan tashqari talabalarga kelgusi pedagogik faoliyatlarida halol odamni qalloblik, ta'magirlik qilmasligi, birovlarini qon qaqshatib boyluk orttirishdan nafratlanishi, xalq qarg'ishidan cho'chishi, ana shunday insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kishi hamisha xiyonat, nopoklik yo'ldan qaytishi, halollik, poklik, diyonat sari intilishi muqarrar ekanligini kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga yetkazish barobarida ularga iqtisodiy ish-harakat ma'nolarini anglatuvchi mashq matnlari sifatida "Qobusnoma"ning tegishli parchalaridan foydalanish uchun "Ona tili", "Odobnoma" va b.q. fanlarning integratsiyasini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir.

Mahmud Qoshg'ariy va unig "Devonu lug'atit turk" [2.33] asarini o'rganish jarayonida XI asrda yashab ijod etgan O'rta Osiyo xalqlarining atoqli farzandi, ulug' allomaning devoni yordamida talabalarni kelgusi pedagogik faoliyatlarida foydalansa bo'ladigan iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga oid materiallar bilan qurollantirish imkoniyatlari namoyon qilindi.

Mazkur devonga kirgan hikmatli va ibrotomuz gaplarda ta'lim-tarbiya, hulq-atvor, ilm-fan to'g'risida hur fikrli g'oyalar bilan bir qatorda alloma kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undadi, ilm va hunar sohiblarini e'zozladi, ulardan ibrat olishga chaqiradi. U jamiyatda ta'magirlik, boyluk ketidan quvish, bahillik va b.q. illatlarga qarshi chiqadi. Shu bois uning insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalaridan foydalanish boshlang'ich sinf ona tili, o'qish, odobnoma darslarida o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berishda foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar berish joizdir. Ushbu maqsadda "Pedagogika tarixi" bo'limi bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida talabalar bilan "Devonu lug'atit turk" asarida iqtisodga oid bayon qilingan ayrim parchalarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish joizdir. Bunda yuqorida tahlil qilingan "Ikki qismli kundalik" faol ta'lim usulidan foydalanish asqotadi. Quyida ana shunday parchalardan na'munalar keltiramiz: "Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonliq, chunki tirishqoq ko'p ishlab yaxshi taomlar, go'sht, yog'lar topadi. Shu bilan u moy oshaydi. Erinchoq esa o'zining yalqovligi bilan ishdan qochadi, hafalikdan boshiga uradi, uni qonatadi"(100 b.); "Qarz beruvchi arslon, qarz oluvchi sichqon". Bu maqolda qarz

beruvchi (puldor) hujum qilishga go‘yo arslondir, qarzdor esa qo‘rquv, vahima bosganidan sichqon kabidir, degan o‘xshatma keltirilgan (105 b.); “Quruq qoshiq og‘izga yoqmas, quruq so‘z quloqqa yoqmas” – degan maqol esa birovdan yordam so‘rash uchun unga ham biror foyda keltirish kerak, degan m’noda qo‘llaniladi (402 b.); asarning 465-betida keltirilgan she’rda yoshlarga quyidagicha nasihat qilinadi: “Ota-onaning nasihatlarini eshit, gapingda ularning so‘zini qaytarma, ko‘p mol topsang, o‘zingdan o‘tib quturma, mag‘rurlanib fe’lingni buzma” va h.k.

Auditoriya vaqtining chegaralanganligi munosabati bilan bu bebaho asarda talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini oshirishga hizmat qiladigan iqtisodiy mazmun bilan yo‘g‘rilgan barcha parchalarni ular bilan birga tahlil qilishga imkoniyat bo‘lmaydi.

Shu boiz mustaqil o‘qib o‘rganish va o‘zlashtirish uchun ona tili, ona tili o‘qitish metodikasi va b.q. fanlar o‘qituvchilari bilan hamkorlikda mazkur asar bo‘yicha qisqacha iqtisodiy lug‘at ma’lumotnoma tuzish, iqtisodiy qadriyatlarimizni auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarida leksik, frazeologik jihatdan tahlil qilishga imkon beradigan materiallarni saralab olishga jalb qilish joizdir.

Movaraunnahrda iqtisodiy ta’limotning shakllanishida sohibqiron Amir Temurning o‘rni beqiyosdir. Buyuk sarkarda dehqonchilik tiriklik va yashash manbai, markazlashgan mahalliy davlat iqtisodiyotining asosiy tarmog‘i, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning muhim omili ekanligini barcha hukmdorlardan ancha oldin anglab, erdan oqilona foydalanish va uni e’zozlashga yo‘g‘rilgan tadbirlarni amalga oshirdi. Bu borada ulug‘ bobomizning o‘zi shunday deydi: “Xarob bo‘lib yotgan yerlar egasiz bo‘lsa, xolisa tomonidan obod qilinsin. Agar egasi bo‘lsa-yu, obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar bersinlar, toki u o‘z yerini obod qilib yursin. Xarob yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko‘priklarni tuzatsinlar, ariq va daryolar ustiga yangi ko‘priklar qursinlar... Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo‘lsa unga ekin-tekin uchun zarur urug‘ va asbob tayyorlab berilsin”.

Bundan tashqari Amir Temurning “Temur tuzuklari” [2.8] da bayon qilingan iqtisodiy qarashlari muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash joizdir. Chunki, buyuk bobomizning o‘z saltanatida o‘rnatgan mehnat intizomi, buxgalteriya hisobi, statistika, nazorat kabi davlatni adolatli boshqarish bilan bog‘liq amaliy ishlari bugungi kunda ham asqotayotganligini talabalarga aniq dalillarda isbotlab berish, shubhasiz ularni maktabda iqtisodiy ta’lim-tarbiyani samarali tashkil qilishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki, o‘quv-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan nafaqat mamlakatimizda, balki rivojlangan horijiy mamlakatlarda pedagogika fani va amaliyoti erishgan yutuqlarni o‘rganishni va ta’lim jarayoniga tez sur’atlar bilan va to‘lig‘icha joriy qilishga bog‘liqdir.

Ushbu nuqtai nazardan pedagogika tarixi fanining “Hozirgi davrda jahonning rivojlangan mamlakatlarida xalq ta’limi va pedagogika fani” mavzusini o‘rganish jarayonida bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirish asqotadi.

Shu munosabat bilan talabalar diqqatini rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berishning muhim bo‘g‘ini maktab hisoblanishini, unda iqtisodiy bilim asoslari fan sifatida o‘qitilishini ta’kidlash barobarida talabalar diqqatini turli tadbirkor firma, birlashma va hususiy shaxslar tomonidan mablag‘ bilan ta’minlanadigan “Junior Achievement” (yoshlarning yutuqlari) nomli dastur mavjudligini, uning asosida turli sinovlar uchun iqtisodiy ta’lim mazmunini ifodalaydigan o‘quv dasturlari, qo‘llanmalari, masalalar to‘plamlari chop etilishini, o‘quvchilarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini tarkib toptirishga yordam beradigan kompaniyalarni muntazam o‘tkazilib turishiga jalb qilish lozim.

Bunda, ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilariga iqtisodiyotga oid bilimlar beradigan ikki chorakka mo‘ljallangan hamda “Junior Achievement” tomonidan ishlab chiqilgan va tayyorlangan ta’lim vositalaridan to‘liq foydalanadigan

“Applied Economics” (Amaliy iqtisodiyot) kurs dasturining o‘rni alohida ta’kidlash lozim.

Xuddi shuningdek, talabalarni 6-8-sinflar o‘quvchilari uchun “Project Buzness” fakultativ o‘quv kursi dasturi, 4-5-sinflar uchun “Buzness Basics” erkin tadbirkorlik iqtisodiyotiga va biznes olamiga kirish kursi, boshlang‘ich sinflar uchun “The Elementary school” iqtisod va biznes olamiga kirish kurslarining maqsad va vazifalari, mazmuni bilan internetdan olingan ma’lumotlar asosida muntazam tanishtirib borish, bo‘lajak o‘qituvchilarni referat yozishga jalb qilish va h.k. ularda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish ishiga ijobiy yondoshish, davlat ahamiyatiga molik ushbu ishga fermer ho‘jaliklari, tadbirkor firma, birlashmalar, xususiy tadbirkorlarni jalb qilish, bu sohada erishilgan yutuqlardan samarali foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikmalarni shakllantirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishi munosabati bilan jamiyatimizni ta’lim muassasalariga yosh avlodning iqtisodiy ta’lim–tarbiyasini takomillashtirish bo‘yicha bergan ijtimoiy buyurtmasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da, Prezident I.A Karimovning asarlarida barkamol avlod tarbiyasi va ta’lim-tarbiyani isloh qilish bo‘yicha ilgari surgan g‘oyalari [1.2,1.3,1.5]da aniq ifodalab berilganligi bilan talabalarni tanishtirish barobarida ularning diqqatini bu sohada hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilgan va oshirilayotgan hamda istiqbolda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning mazmuni va ko‘lami bilan tanishtirishga jalb qilish juda muhimdir.

Ma’lumki bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishning muhim vazifalaridan biri, bu jamiyatimizning barcha a’zolarini kundalik faoliyatida amaliy hisob-kitob olib borishga va oqilona tadbirkorlikka o‘rgatishdan iboratdir. Bu esa pedagogika kafedrasida o‘qituvchisidan ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida mazkur vazifalar sirasidan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining maktabdagi pedagogik faoliyatida turli fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish bo‘yicha ishning mazmunini, shakl, metod va vositalarini aniq mavzu va savollar misolida izohlab berishni taqozo etadi.

Shu nutai nazardan pedagogika tarixining “Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi va pedagogik fikrlar taraqqiyoti” mavzusini bayon qilishda mamlakatimizda maktab o‘quvchilarida iqtisodiy bilimdonlik, iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyatni tarkib toptirish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan amalga oshirilgan amaliy ishlar bilan talabalarni tanishtirish kafedra professor-o‘qituvchisining diqqat e’tiboridan chetda qolmasligi kerak. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va horijiy sarmoyalar bo‘yicha Idoralararo kengashning 1996 yil 16 martdagi “O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy ta’limni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarorini bajarish va uzluksiz ta’limni tashkil qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 1996 yil 29 apreldagi 92-buyrug‘i asosida barcha umumta’lim maktablarining I-XI (hozir I - IX) sinflarida maxsus dasturlar va darsliklar asosida “Iqtisodiy ta’lim asoslari” fani kiritildi: boshlang‘ich (I-IV) sinflarda “Iqtisodiyot alifbosi” (2011 yildan boshlab mazkur fan mazmuni boshlang‘ich sinflarda o‘qitilayotgan fanlar bilan integratsiyalanib o‘rgatilmoqda), tayanch (V-XI) (hozir V-IX) sinflarda “Iqtisodiyot saboqlari” (Iqtisodga kirish).

Talabalarda maktab yoshidagi o‘quvchilarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish tizimida ilmiy to‘garak mashg‘ulotlari, ularning pedagogik amaliyotlari, ilmiy tadqiqot va malakaviy bitiruv ishlarining hissalarini ham hisobga olish joizdir.

Yuqorida bayon qilinginlardan ko‘rinadiki, pedagogika tarixini o‘rganish bo‘lajak o‘qituvchilarni zardushtiylik va islom dinining muqaddas kitoblari hamda hadislarda xalqimizni halol mehnat qilishga, poklikka, da’vatlari hamda xalk og‘zaki ijodiyoti namunalari, buyuk ajdodlarimizning iqtisodiy ta’limotlari, g‘oyalari, fiklari, shuningdek, rivojlangan davlatlarning iqtisodiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo‘yicha erishgan yutuqlari hamda respublikamizda yosh avlodga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berishga qaratilgan ma’yoriy hujjatlari bilan qurollantirish, talabalarga boshlang‘ich maktabda o‘qitiladigan fanlar mazmuniga iqtisodiy ta’lim-tarbiyani singdirish orqali o‘quvchilarni tarbiyalash imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilarni maktabda iqtisodiy tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishga nazariy tayyorlashga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi, uning psixologik jihati hisobga olinmaganda tugallanmay qoladi. Shu bois quyida o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishning psixologik tomonlari bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini u yoki bu darajada tanishtirishga imkon beradigan umumiy psixologiya kursi dasturi mavzulari bo'yicha ayrim namuna (fragment) lar keltiramiz [23].

2.1. Psixologiya fanining predmeti. Psixika va ong. Ong va ongsizlik...

2.3. Faoliyatning psixologik tahlili. Motivlar va faoliyat maqsadlari. Faoliyat va psixik jarayonlar. Faoliyatning tuzilishi. Ish-harakatlar inson faoliyatidan biri ekanligi. Tashqi (amaliy) va ichki (aqliy) ish-harakatlar. ...ish-harakatlarni bajarish usullari (Operatsiyalar). Aqliy operatsiyalar.

Faoliyatni egallashda faollik va ishchanlik. Ko'nikma va malakalar. Ularning shakllanish qonuniyatlari. Faoliyatning asosiy turlari. Yetakchi faoliyat haqida tushuncha.

5. Motivatsiya va emotsiya psixologiyasi.

5.1. Motiv ehtiyojlarni belgilash natijasi ekanligi. ... Ehtiyojlar va emotsiyalar. ... emotsional jarayonlarning umumiy xarakteristikasi, his-tuyg'ularning fiziologik asoslari.

Kayfiyat, stresslar... Insonning yuksak (axloqiy, aqliy, estetik) hislari.

5.2. Iroda psixologiyasi.

Irodaviy harakatlar... shaxsning irodaviy xususiyatlari. Irodani tarbiyalash va kishining o'z irodasini tarbiyalashi.

6. Shaxs psixologiyasi.

... Shaxs faoliyati va uning yo'nalishlari. Shaxsning ustanavkalari va muhim orientatsiyalari. Odamning qiziqishlari. Kishining o'z-o'ziga baho berishi va uning talabchanlik darajasi... E'tiqod. Shaxs shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari.

7. Muloqot.

Muloqot axborot almashish tariqasida. Muloqot shaxslararo ta'sir sifatida. Muloqot kishilarining o'zaro bir-birini tushunish tariqasida.

Turli tipdagi muloqot va kishi tafakkuri.

8. Diqqat.

... Diqqat va faoliyat. Diqqatning taraqqiy etishi. O'quvchilar diqqatini rejali ravishda shakllantirib berish.

9. Sezgi va idrok.

Kishining hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyati. ... Fazoni va harakatni idrok qilish. Vaqtni idrok qilish.

Xotiraning individual psixologik farqlari.

... Xotira va shaxs. Xotira va faoliyat. Xotiraning o'sishi. Xotira bilan tafakkurning o'zaro bog'liqligi.

10. Xayol.

...kattalarning ijodiy faoliyatida fantaziyaning roli.

11. Tafakkur.

Tafakkur va hissiy bilish. Tafakkur va predmetli amaliy faoliyat. ...yoshlarda yangicha tafakkur yuritishni shakllantirish.

12. Temperament.

... Mehnat va o'qish faoliyatida temperamentning roli. Faoliyatning i namoyon ndividual uslubi.

13. Xarakter.

... Xarakter va temperament.

14. Qobiliyat.

Qobiliyat va faoliyat. ... Talant. ... Layoqat. Qobiliyat va insoniyat. ... qobiliyatlar va yoshlarning kasb tanlash muammolari.

Endi ayrim psixologik kategoriya va tushunchalarning iqtisod bilan bog'liqligini keltiramiz: (-ilova).

2-jadval

Mavzular	Psixologiyaning iqtisodiy mazmuni
2. Ong. Ong shakllari: mulohaza	Savdo karxona xodimlarining mehnat intizomiga rioya qilmasligi tufayli kundalik, oylik pul tushumi rejasini bajara olmaydi. Tovarning bahosi yuqori bo'lsa, demak u chiroyli bo'lishi kerak.
Xulosa chiqarish	Savdo korxanasining barcha sotuvchilari mehnatsevar va qat'iyatlidir. I.Axmedov ham shu magazinda ishlaydi. Demak, I.Axmedov – mehnatsevar va qat'iyatli sotuvchi.

Deduktiv	Umumiy xulosadan xususiy xulosa (I.Axmedov - mehnatsevar va qat'iyatli sotuvchi misoli) chiqarish.
Induktiv	Xususiy xulosadan umumiy xulosa chiqariladi, ya'ni 7-14-aprel kunlari magazin pul tushumi rejasini bajarolmaydi. 7- va 14-aprel dushanba kunlari. Demak, magazin dushanba kunlari pul tushumi rejasini bajara olmaydi.
Fikrlash operatsiyalar: taqqoslash	Sotuvchi tomonidan bir tavarini ikkinchi tovarga nisbatan ustunligini isbotlab berishda yoki qandaydir buyum, mahsulotning sifat va o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib berishda ko'p qo'llanilishini talabalarga ko'rsatish.
Abstraksiya	Abstraksiya natijasi, misol uchun, "moda", "qulaylik", "uyg'unlik" va h.k. hisoblanadi.
Qiziquvchanlik, sinchkovlik	Xaridorning tavar haqidagi barcha ma'lumotlarni ko'proq va atroflicha bilishga intilishini qondirish uchun sotuvchining kasbiy va umumiy ma'lumotini tinmay oshirishi zarurligini talabalarga uqtirish.
7. Muloqat va nutq.	Sotuvchi kasbiy mahoratining bosh tarkibiy qismi bo'lmish nutq (so'z) vositasida tavar ayirboshlashda xaridorni o'ziga jalb qila olish, uning o'zini tavar to'g'risidagi niyatini ochiqdan-ochiq bildirishga davat etishni, magazinda nutqiy muloqotning asosiy qoidasini, ya'ni "tavarni sotish uchun xaridorni gapirishga majbur etish"ni esdan chiqarmaydigan mohir sotuvchi sifatida faoliyat ko'rsatish uchun, u xaridorlar bilan bo'ladigan muloqotlarda sodda va tushunarli gapirishi (xaridorga tushunarli bo'lmagan atamalardan, uzundan-uzun murakkab jumalardan foydalanmasligi va h.k.), tushuntirishlarni aniq va mantiqiy, keltirayotgan dilillarni salmoqli va mantiqiy bo'lishiga erishish; so'zlarni aniq talaffuz qilishi, shoshilmasdan, o'rtacha sur'atda, ortiqcha so'zlarni ishlatmasdan sof gapirish, boy so'z xazinasiga ega bo'lishi va undan oqilona foydalana bilishi kerakligiga talabalar e'tiborini jalb qilish.

III BOB. Sinov-tajriba ishining natijalari va uni muhokama qilish.

3.1§ Talabalarni iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga tayyorgarligini holatini o‘rganish.

Talabalar iqtisodiy tayyorgarligini o‘rganish uchun dastavval uning dasturi va metodlarini tuzish zarur. Bunda birinchi va bitiruvchi kurslar talabalarida iqtisodiy tayyorgarlikni quyidagi elementlarining mavjudligini va sifati (kengligi va chuqurligi, turg‘unligi) ni o‘rgandik:

- politexnik saviyani;
- iqtisodiy ta’lim-tarbiya nazariyasini egallaganligini;
- iqtisodiy ta’lim-tarbiya metodikasini bilishini.

Iqtisodiy tayyorgarlikning yuqorida ko‘rsatilgan har bir elementi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida aniq topshiriqlar va savollarda aks ettirildi. Jumladan, iqtisodiy ta’lim-tarbiya nazariyasi tuchunchasiga maktabda iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning maqsadi, uning ijtimoiy ta’lim-tarbiya tizimi, maktabning iqtisodiy tarbiya bo‘yicha vazifalari va h.k. qo‘shdik.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishini bitiruvchi talabalarning iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish bo‘yicha metodik tayyorgarligida quyidagi elementlarni aniqlashga harakat qildik:

- matematika predmeti bo‘yicha aniq darslarning iqtisodiy vazifasi va darsning iqtisodiy tarbiya bo‘yicha imkoniyatlarini namoyon qilishni;
- ijtimoiy foydali – umumli mehnatning ma’lum bir turi bo‘yicha aniq bir darsda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish bo‘yicha qo‘llaniladigan metodik usul (pyom) larini tanlashni;

Shuningdek, mazkur fan bo‘yicha aniq to‘garak va mavzuni o‘rganishda qo‘llaniladigan metodik qism(usul) larni tanlashni;

- aniq dars, mavzu uchun predmetlararo bog‘lanishni amalga oshirishning iqtisodiy tarbiyadagi imkoniyatlarini aniqlash;

- ishlab chiqarish – texnika mazmuniga ega bo‘lgan va turli kasb vakillari mehnat faoliyati bilan bog‘liq masalalar tuza bilish;

- predmet bo‘yicha ishlab chiqarish ekskursiya marshutlarining rejaini ishlab chiqishni, ekskursiyada o‘quvchilar bilishi lozim bo‘lgan individual va jamoaviy topshiriqlarni tuza bilishini.

Talabalarining iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish bo‘yicha tayyorgarligini o‘rganishda suhbat, topshiriqlar, testlar, anketa-so‘rovnomalar, kafedra, fakultetda o‘tkazilgan darslarni tahlil qilish kabi metodlardan foydalandik. Bundan tashqari talabalarining iqtisodiy tayyorgarligi bo‘yicha jurnal, pedagogik adabiyotlar, konferensiya materiallari o‘rganildi.

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish bo‘yicha tayyorgarligini o‘rganish uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda birinchi kurs va bitiruvchi kurs talabalarining politexnik va iqtisodiy saviyalari aniqlandi. Buning uchun ajratilgan vaqt davomida ular yozma shaklda 1-ilovada bayon qilingan savollarga javob berdilar. Bunda talabalarni bir-birlari bilan maslahatlashishga yoki adabiyotlardan foydalanishga imkon bermaydigan sharoit yaratildi.

Ikkinchi bosqich - bitiruvchi kurs talabalarining iqtisodiy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo‘yicha bilimlarini aniqlashni ko‘zda tutadi.

Uchinchi bosqich - bitiruvchi kurs talabalarining iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish bo‘yicha ko‘nikmalarini boholashga qaratildi.

Yuqorida bayon qilingan tadqiqot dasturi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti va Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika institutida amalga oshirildi.

Oliy o‘quv yurti talabalarining politexnik va iqtisodiy saviyalarini o‘rganish natijalarini qarashga o‘tamiz.

Birinchi va bitiruvchi kurs talabalari 36 ta savolga javob berishlari kerak edi. Ularda 16 tasi politexnik va iqtisodiyot (“iqtisod va uni tashkil etish”, 20 tasi “Bozor iqtisodiyoti munosabatlari”) bilan bog‘liq savollarni tashkil qildi.

Bitiruvchi kurs talabalariga taqdim etilgan mazkur savollardan maqsad ularning oliy o‘quv yurtida ta‘lim olish davrida politexnik va iqtisodiy saviyalarining dinamikasini kuzatishdan, ularning bilimlarini kengaytirilganligini qayd qilishdan iborat edi.

Birinchi va bitiruvchi kurs talabalari bilan anketa so‘rovlari yilning oxirida o‘tkazildi.

Birinchi va bitiruvchi kurslar talabalari javob berishlar lozim bo‘lgan savollar guruhlarini quyidagilardan iborat bo‘ldi:

I. “Iqtisodiyot va uni tashkil etish”: xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari tizimi. Moddiy ishlab chiqarish bilan bog‘liq tarmoqlar. O‘simchilik va chorvachilik tarmoqlari. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va qayta ishlash.

Fermer xo‘jaliklari. Mahsulot tannarxi. Foyda. Mehnat unumdorligi. Pul. Inson ehtiyoji. Oila byudjeti. Oila daromadlari va xarajatlari.

II. “Bozor iqtisodiyoti munosabatlari”: bozor va uning turlari. Mulk va uning shakllari. Davlat mulki, xususiy mulk. Aralash mulk. Oila mulki. Raqobat va uning bozor, ishlab chiqarishga ta‘siri. Biznes. Biznes loyiha. Tadbirkor. Talab va taklif. Shartnoma. Ishlab chiqarish intizomi. Tovar ayirboshlash. Isrofgarchilik.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda faqatgina aniq, mukammal bayon qilingan javoblarni to‘liq va to‘g‘ri deb hisobladik. To‘liqmas va aniqmas javoblarni zarur va yetarli misollar va ta‘riflari bo‘lmagan yoki bilimlarining bo‘shligi yoki tushunchalarning yo‘qligi tufayli bir qancha xatolarga yo‘l

qo‘yganlarini kiritdik. Noto‘g‘ri yoki xato hisoblangan javoblarga biron-bir ilmiy bilimlarni aks ettirmaganlarni kiritdik.

Endi olingan natijalar va ularning tahlilini qarashga o‘tamiz.

1. Iqtisodiyot va uni tashkil etish.

5-jadval

Javoblar	Javoblar soni, %			
	I kurs		IV kurs	
	Jami	%	Jami	%
To‘liq va to‘g‘ri	8	10	15/16	13/20
To‘liqmas yoki noaniq	53	62	72/75	67/69
Noto‘g‘ri yoki xato	28	15	27/9	20/11

Bu yerda biz umumiy holda birinchi kurs talabalarining “Iqtisod va iqtisodni tashkil etish” bo‘yicha bilimlarini bitiruvchi kurslar talabalarining mazkur soha bo‘yicha to‘rt yil davomida olgan bilimlari bilan solishtirishni maqsad qilib qo‘ydik. Jadvalda keltirilgan materiallardan ko‘rinadiki, umumiy holda bitiruvchi kurs talabalarining iqtisodiy bilimlari birinchi kurs talabalarinikidan yuqoriroqdir.

Olingan javoblarning atroflicha tahlil qilish quyidagilardan dalolat beradi.

Xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari tizimida mo‘ljal olish hayot yo‘lini to‘g‘ri tanlashning zarur sharti ekanligini hisobga olib, birinchi va bitiruvchi kurs talabalariga berilgan savollar mazmuni umumiy bo‘lib, ular xalq xo‘jaligini moddiy va ma‘naviy sohalarga bo‘linishi, tarmoqlarni guruhlanishi; sanoat, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini guruhlanishi prinsiplarini tushunishga qaratilgan edi. Mazkur savollarga to‘g‘ri javob berish uchun birinchi kurs talabalarini umumiy o‘rta maktabda “O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan (VIII sinf) egallagan bilimlaridan foydalanishlari, “O‘zbekiston tarixi”dan 25% so‘ralganlar

noto‘g‘ri javob berdilar, 62% talabalar esa o‘zlarining javoblarida noaniqlikka yo‘l qo‘ydilar. Bitiruvchi kurs talabalari ko‘rsatilgan savollarga muvaffaqiyatli javob berdilar, biroq to‘liq va to‘g‘ri javoblar kamdan-kam edi.

Birinchi kurs talabalarini qo‘shimcha savollarga, javob berishlari, masalan, “qaysi tarmoqlarda va tumanlarda fermer xo‘jaliklari o‘zlarini oqlaydilar?”, “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta ishlash” deganda nimani tushunasiz?

Bulardan tashqari, ulardan mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish intizomi, qo‘shimcha qiymat, pul, daromad kabi savollarga javob berishlari talab etildi.

2. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari

6-jadval

Javoblar	Javoblar soni, %			
	I kurs		IV kurs	
	Jami	%	Jami	%
To‘liq va to‘g‘ri	4	10	3/2	3/5
To‘liqmas yoki noaniq	20	53	85/7	74/71
Noto‘g‘ri yoki xato	14	37	29/9	24/23

“Sanoat tarmoqlari” savoliga 76 kishidan iborat birinchi kurs talabalaridan 3 kishi “metallurgiya sanoati” ni, 5 talaba “Qurilish”, “Yengil sanoat” ni, 7 kishi “oziq-ovqat sanoati” ni tilga olgan.

“Qishloq xo‘jalik” tarmoqlari savoliga aksariyat talabalar “dehqonchilik, chorvachilik” deb javob berganlar. Ammo, ular “Dehqonchilik” o‘z navbatida donchilik, sholichilik, texnika ekinlari, moy, shakar, tola beradigan o‘simliklar (paxtadan tashqari), dorivor o‘simliklar, kartoshkachilik va b.q.ni chetlab o‘tganlar. Shuningdek, bitiruvchi va birinchi kurs talabalari “Chorvachilik” ning cho‘chqachilik, baliqchilik, qorako‘lchilik, asalarichilik kabi tarmoqlarini umuman esga olmaganlar.

Birinchi kurs talabalarining javoblarida ham, bitiruvchi kurs talabalarining javoblarida ham “Xalq xo‘jaligi”ning transport (quriqlik transporti, suv transporti, havo transporti, quvur transport, elektron transport) hamda yoqilg‘i energetika sanoatiga umuman e‘tibor berilmagan.

Tadqiqotimiz doirasida bitiruvchi kurs talabalarining iqtisodiy tayyorgarligi bo‘yicha o‘zini-o‘zi baholashi ma‘lum qiziqish uyg‘otadi.

Talabalarning boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodiy tarbiya berish ishiga tayyorgarligi bo'yicha o'zini-o'zi baxolash

7-jadval

3. O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash bo'yicha metodik ishda nimani eng kam amalga oshirasiz?	
- o'quvchilarni ishlab chiqarish va mehnatning iqtisodiy asoslari bilan tanishtirish bo'yicha ekskursiyalarni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazishni; -----	7 - 17%
- iqtisodiy tarbiya vazifalari bo'yicha oilada ota-onalar bilan ishlashni tashkil etish va uni amalga oshirish yo'llarini; -----	7 - 17%
- mutaxassislar, olimlar, mehnat faxriylari, yosh ishlab chiqarish ilg'orlari ishtirokida vaqtni, faktik iqtisodiy materiallarni jonli mushohada qilish, fikrlash orqali tejamkorlik darslarini rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazishni; -----	10 - 24%
- iqtisodiy tarbiya bo'yicha fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirishni; -4	- 9,5%
- "Iqtisodiyot - atrofimizda", "G'alla(non) bizning boyligimiz" va boshqa mavzulardagi iqtisodiy bilimlarni to'ldirish maqsadida suhbat, bahs-munozaralar o'tkazish, o'zuvchilarni o'z-o'ziga xizmat mehnatiga, shanbaliklarga jalb qilishni ta'minlashni. -----	3 - 7%
4. Oliy maktab Sizda ilmiy, iqtisodiy, pedagogik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirdimi?	
- ha; -----	23 - 55%
-yo'q; -----	-qandaydir
darajada-----	7 - 17%

1. Oliy o'quv yurtida o'zingizning iqtisodiy tarbiya bo'yicha tayyorgarligingizni baxolang:

Bu tayyorgarlik:

- yaxshi; ----- **20 - 48%**

- qanoatlanarli; ----- **12 - 29%**

- qanoatlanarli emas. ----- **2 - 5%**

2. O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash bo'yicha o'z tayyorgarligingizning qaysi qismini eng sust deb hisoblaysiz?

- politexnik va iqtisodiy saviya bo'yicha; ----- **14 - 33%**

- iqtisodiy ongni shakllantirishga ko'maklashuvchi ijtimoiy foydali mehnat, to'garaklarni tashkil etish, ijodiy shart-sharoitlar yaratish bo'yicha; ----- **1 - 2,4%**

- mehnat mahsulotlariga, shaxsiy narsalarga, kitoblarga, mehnatni ilmiy tashkil etishga, vaqt byujetidan samarali foydalanishga, tejamkorlik malakasini shakllantirish bo'yicha; ----- **8 - 19%**

- tabiiy-gumanitar fanlarni o'rganish jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari ishda ilmiy asoslangan, iqtisodiy va kasbga yo'naltirishga oid axborotlardan foydalanish, o'quvchilarda iqtisodiy ong elementlarini rivojlantirish bo'yicha; ----- **4 - 9,5%**

- iqtisodiy tarbiya nazariyasini egallash bo'yicha. ----- **2 - 5%**

3. O'quvchilarni iqtisodiy tarbiyalash bo'yicha metodik ishda nimani eng kam amalga oshirasiz?	
- o'quvchilarni ishlab chiqarish va mehnatning iqtisodiy asoslari bilan tanishtirish bo'yicha ekskursiyalarni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazishni; -----	7 - 17%
- iqtisodiy tarbiya vazifalari bo'yicha oilada ota-onalar bilan ishlashni tashkil etish va uni amalga oshirish yo'llarini; -----	7 - 17%
- mutaxassislar, olimlar, mehnat faxriylari, yosh ishlab chiqarish ilg'orlari ishtirokida vaqtni, faktik iqtisodiy materiallarni jonli mushohada qilish, fikrlash orqali tejamkorlik darslarini rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazishni; -----	10 - 24%
- iqtisodiy tarbiya bo'yicha fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirishni; -	4 - 9,5%
- "Iqtisodiyot - atrofimizda", "G'alla(non) bizning boyligimiz" va boshqa mavzulardagi iqtisodiy bilimlarni to'ldirish maqsadida suhbat, bahs-munozaralar o'tkazish, o'zuvchilarni o'z-o'ziga xizmat mehnatiga, shanbaliklarga jalb qilishni ta'minlashni. -----	3 - 7%
4. Oliy maktab Sizda ilmiy, iqtisodiy, pedagogik va boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirdimi?	
- ha; -----	23 - 55%
-yo'q; -----	-qandaydir
darajada-----	7 - 17%

Bitiruvchi kurs talabalari iqtisodiy tarbiya nazariyasi va metodikasiga tayyorligi.

Bu bosqichda bitiruvchi kurs talabalari (boshlang'ich ta'lim, mehnat ta'limi)ning iqtisodiy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'yicha bilimlari tekshirildi. Savollar 4-ilovada keltirilgan. Talabalarning iqtisodiy tayyorgarligi bo'yicha ishonchli materiallarni olish uchun taqqoslab o'rganish metodini qo'lladik. Javob berganlarning iqtisodiy tayyorgarlik darajasi quyidagi ko'rinishni oldi:

8-jadval

Iqtisodiy tarbiya nazariyasi bo'yicha		%	Iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish metodikasi bo'yicha		%
1	Mehnat ta'limi o'qituvchisi	80	1	Mehnat ta'limi o'qituvchisi	70
2	Maktab rahbarlari	75	2	Maktab rahbarlari	66
3	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi	35	3	Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi	30
4	Mehnat ta'lim bitiruvchisi	40	4	Mehnat ta'lim bitiruvchisi	35
5	Boshlang'ich ta'lim bitiruvchisi	25	5	Boshlang'ich ta'lim bitiruvchisi	25

Shu munosabat bilan 2-3 yil pedagogik ish tajridasiga ega yosh o'qituvchi va rahbarlarning iqtisodiy tarbiya nazariyasi va uni amalga oshirish bo'yicha bilimlari o'rganildi. Olingan natijalarning tahlili oliy o'quv yurti bitiruvchilari, yosh o'qituvchilar, hatto maktab rahbarlarining iqtisodiy tarbiya va metodikasi bo'yicha bilimlarining pastligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy tarbiya nazariyasi bo'yicha maktab rahbarlarining to'g'ri javoblari 75-85%, yosh o'qituvchilar guruhining javobi 30-35%, bitiruvchi kurs talabalarida 37-41%ni tashkil qildi.


Iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish metodikasi bo'yicha maktab rahbarlari 15%, yosh o'qituvchilar 9-12% va talabalar 25-27% noto'g'ri javob berdilar.

Quyidagi jadvalda esa Samarqand davlat universiteti va Jizzax davlat pedagogika instituti talabalari nazorat va tajriba guruhlarida o'zlashtirish samaradorligi aks ettirilgan.

9- jadval


	Guruhlar	O'tkazilgan vaqti	Javoblar, %		
			To'liq	To'liqmas	Noto'g'ri
Sam	Nazorat (94 kishi)	Tajriba boshi	14	38	48
DU	Tajriba (94 kishi)	Tajriba oxiri	25	50	25
JDPI	Nazorat (76 kishi)	Tajriba boshi	12	42	46
	Tajriba (76 kishi)	Tajriba oxiri	18	56	26

Javvalda keltirilgan tajriba natijalarini quyidagicha ifodalash mumkin:





14% 38% 48%

SamDU. Nazorat guruhi



25% 50% 25%

SamDU. Tajriba guruhi



12%

42%

46%

18%

56%

26%

JDPI. Nazorat guruhi

JDPI. Tajriba guruhi

Jadvaldan ko‘rinadika SamDU pedagogika fakulteti talabalari nazorat guruhida 14% bilim ko‘rsatkichi tajriba guruhi natijasida 25% ko‘rsatkichga, JDPI talabalarida esa 12% ko‘rsatkich tajriba oxirida 18% ko‘rsatkichga erishildi. To‘liqmas javoblar SamDU talabalarida 38% dan 50% ga ko‘tarilgan bo‘lsa, JDPI da 42% dan 56% ga erishilganligini qayd etish lozim. Noto‘g‘ri javoblar tajriba boshida SamDU da tajriba boshidagi 48% holat tajriba oxirida 25% ga pasayganligini, bu ko‘rsatkich JDPI da tajriba boshida 46% tajriba oxirida 26% ga pasayishiga erishilganligi tajriba ishimizda aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati.

Rasmiy hujjatlar va manbalar

- 1.1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 1992. -46 b.
- 1.2 Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992.
- 1.3 Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. – T.: O'zb.,1992.
- 1.4 Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi. 1997y. 29 avgust// Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998. – 3-19 b.
- 1.5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-tom. O'zbekiston, 1996.
- 1.6. Kadrlar tayyorlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent. Sharq, 1998. -31-64 b.

2. Dissertatsiyalar va avtoreferatlar, monografiyalar,

darslik va kitoblar

- 2.1. Amend A.F. Ekonomicheskoe vospitaniya mladshix shkolnikov. Ucheb. Posobie. –Chelyabinsk, 1982
- 2.2. Andrianova A.E. Vospitaniya berejlivosti // Nach. Shkola, 1983, №8.
- 2.3. Asadova R.A., Iglanova I.N. Vospitaniya berejlivosti // Nach. Shkola, 1986, №10.
- 2.4. Abbujabborova T.: “Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining professiogrammasi” // Xalq ta'limi 2004y. 4-son 80-83 b.
- 2.5. Atutov P.R. Politexnicheskoe obrazovaniye shkolnikov: sblieniye obsheobrazovatelnoy i professionalnoy shkolы. – M., 1986.
- 2.6. Axlidinov R.Sh. va b.q. Maktabni boshqarishda ichki nazorat. – T.: Sharq, 1997. -45 b.
- 2.7. Amir Temir. O'gitlar. - T.: Navro'z, 1992y.
- 2.8. Amir Temir. Temur tuziklari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa birlashmasi, 1991.

- 2.9. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manzil. – Dushanba: Irfon, 1980. 420 b.
- 2.10. Alixonova S. Matematikani o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: Cho‘lpon, 2011. -304 b.
- 2.11. Afanasev V.G. Sistemnost i obshestvo. – M.: Politezdat, 1980. – 368 s.
- 2.12. A.Baxromov. Tabiatshunoslik. Darslik. IV sinf. – Toshkent: Sharq, 2011.
- 2.13. Bolalar adabiyoti va folklor fani dasturi. Tuzuvchi: S.Matjonov. –T.: 2006. 4 b.
- 2.14. Boboqulov S. o‘zining “O‘quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishni metodikasi” Toshkent, 2007. - 22 b.
- 2.15. Valiyev Z. Maktabda iqtisodiy tarbiya // Xalq ta’limi jurnali., 1996, 3-son. – 18-22 b.
- 2.16. Valiberdi X. Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi. Kitobdan parchalar. – T.: Cho‘lpon, 1962. 554 b.
- 2.17. Valiyev Z., Muhiboyev E. Iqtosod alifbosi. 2-sinf. – T.: Sharq, 1996.
- 2.18. Davlatshin M.G., Umarova U.M. Umumiy psixologiya fan dasturi – T., 2005. -9 b.)
- 2.19. Djurayev D.U. Iqtisodiy ta’limda o‘zbek xalq pedagogikasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari. Toshkent, 2006. -22 b.
- 2.20. Imom al-Buxoriy. Hadis. Al jome’ as Sahix. – T.: Qomuslar bosh taxririyyati, 1991. 560 b.
- 2.21. Arimov T., Hasanova E. Matematika kechasi o‘tkazishga oid qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1976. -35 b.
- 2.22. Kamolova N.K. O‘quvchi yoshlarda iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. – T.: 2005. – 187 b.
- 2.23. Kaykavus. Qobusnoma. – T.: Meros, 1992. -176 b.
- 2.24. Kim R. Ekonomicheskoe vospitanie uchavshixsya v deyatelnosti komsomolskoy organizatsii. – T.: 1986.
- 2.25. Konopleva M.D. Vospitanie berejnogo otnosheniya k knigam u mladshix shkolnikov // Nach. Shkola. – M., 1986, №12.

- 2.26. Kungurova N. Ekonomicheskoe vospitanie shkolnikov. M., 1985, №5.
- 2.27. Kuzmina N.V. Metody sistemnogo pedagogicheskogo issledovaniya. Uchebnoe posobie. – L.: izd. LGU, 1980. – 172 s.
- 2.28. M.Axmedov, N.Abduraxmanov, M.Jumanov – Matematika. I sinf. Darslik. – Toshkent. O‘qituvchi, 2012.
- 2.29. M.Umarova, N.Hamroqulova, R.Tojiboyeva – Matematika. III sinf. Darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012.
- 2.30. Matematika fani dasturi. Tuzuvchilar: Z.G Tadjiyeva, M.E.Jumayev, B.Mengziyayev. – T., 2003. – 11 b.
- 2.31. Matematika o‘qitish metodikasi fani dasturi. Tuzuvchilar: M.E.Jumayev, Z.G‘.Tojiboyeva. – T., 2003. 11 b.
- 2.32. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi fan dasturi: Tuzuvchilar: X.R.Sanaqulov. – T., 2006. – 7 b.
- 2.33. Mahmud Qo‘shqariy. Devoni lug‘atit turk. – T., 1961.
- 2.34. Mamajonov I. “Iqtisodchi o‘qituvchilar tayyorlash” //Xalq ta’limi. 2004, 3-son 80-83 b.
- 2.35. N.Abdurahmonova, L.O‘rinboyeva – Matematika. II sinf. Darslik. – Toshkent. O‘qituvchi, 2012.
- 2.36. N.I.Bikboeva, E.YAngiboeva, K.M.Girgoova – Matematika. IV sinf. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.
- 2.37. Nishonaliyev U.N. Formirovanie lichnosti uchitelya trudovogo obucheniya: problemy i perspektivy. – T.: Fan,1990, - 86 b.
- 2.38. Ona tili fani dasturi. Tuzuvchilar: D. Shodmonqulova, D.A.Muhammedova. – T., 2006. – 14 b.
- 2.39. Ona tili o‘qitish metodikasi fan dasturi. Tuzuvchilar: H.G‘ulomov, Sh.Yo‘ldosheva. –T.: 2006. -11 b.
- 2.40. Ochil Safo. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1997. – 256 b.
- 2.41. Pedagogika nazariyasi va tarixi fani dasturi. Tuzuvchilar: S.Nishonova, J.Hasanboev, S.Madiyarova. –T.: ToshDPU, 2003. – 40 b.

2.42. Saidov K.S. Iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'rganishga yangicha yondoshuv// "Ma'naviyat, mafkura va milliy qadriyatlarning kishilar istiqlool ongi va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli" Respublika konferensiyasi materiallari. – Samarqand: SamDU, 1999.- 161-163 b.

2.43. Sobirov B. O'quvchilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish uzluksizligini ta'minlash yo'llari //Uzluksiz ta'lim. 2004y. 4-son 82-85 b.

2.44. Sobirov B.B. O'quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda innovatsion usullardan foydalanishning pedagogik asoslari. T.: 2004. -13 b

2.45. Sobirov V. O'quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning nazariy jihatlari // Xalq ta'limi tizimi., 2004 y. 2-son. – 18-22 b.

2.46. Slastenin V.A. Formirovanie lichnosti uchitelya sovetsoy shkoly v protsesse professionalnoy podgotovke. – M.: Prosveshchenie, 1976. – 159 s.

2.47. Shemyakin B.P. O'quvchilarda iqtisodiy tarbiyalash: nazariya va metodika muammolari.

2.48. Tabiatshunoslik asoslari fan dasturi. Tuzuvchilar: X.Almatov, J.Saidov –T., 2006. – 11 b.

2.49. Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi fani. Tuzuvchilar: A.G.Grigoryans, D.F.Abdumuzimova.

2.50. Tolipova M. Oilada baqimandalik kayfiyati va unga qarshi kurashish// Xalq ta'limi 2005y. 2-son 120-122 b.

2.51. Umarova X.A. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy ta'lim jarayoni uzluksizligini ta'minlashda fanlararo aloqadorlik" // Uzluksiz ta'lim 2007. 5-son 17-22 b.

2.52. Umarova X.A. "Boshlang'ich sinf o'quv predmetlari mazmuniga iqtisodiy bilimlarni integratsiyalash" // Xalq ta'limi 2005 yil 2-son 59-63 b.

2.53. Fayzullayev Sh.N.Podgotovka studentov v pedvuze k provedeniyu raboty po ekonomicheskomu vospitaniyu proforiyentatsii v shkole. Sb. Nauch. Trudov.- T.: ToshGPI, 1988. – s.68-87.

2.54. Xudoyqulov X.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida iqtisodiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari. – T.: Fan. 2004. – 113 b.

2.55. Shadiyev N. Podgotovka budushix uchiteley k rabote po ekonomicheskomu vospitaniyu shkolnikov kak sostavnoe chast ix politexnicheskoy podgotovka// Sistema politexnicheskoy podgotovki shkolnikov v usloviyax perebivnogo obrazovaniya. – Kiev, 1989. – s. 103-115 b.

2.56. Shadiyev N., Fayzullaev Sh.N. Podgotovka studentov pedvuza k osushestvleniyu ekonomicheskogo vospitaniya v protsesse proizvoditelnogo truda// Vsesoyuznaya konferensiya “Soedinenie obucheniya s proizvoditelnyim trudom uchashixsya v novogomehanizma xodeystvaniya” (Tezisy vystupleniy). Chast I. – Tula: izd. NIITOPD DPN, 1990. –s. 114-115.

2.57. Shodiyev N. Universitet fizika ta’limi tizimida bo’lajak o’qituvchilarni iqtisodiy savodxonligini amalga oshirish muammolari// Ta’lim va tarbiya jurn., 2003, 3-4 son. – 57-61 b.

2.58. Shodiyev N. Bo’lajak o’qituvchilarini iqtisodiy tarbiya ishiga tayyorlash – ularning politexnik tayyorgarligi sifatida// Система политехнической подготовка школьников в условиях непрерывного образования. Хорьнов, 21-23 октября 1989г. –Киев, 1989. -103 -115 с.

2.59. Shodiyev N. Unumli mehnat jarayonida bo’lajak o’qituvchilarni iqtisodiy tarbiyani ro’yobga chiqarishga tayyorlash // Соединение обучения с производительным труды учащая в условиях нового механизма хозяйствования. –Тула, 1990. -114-115 с.

2.60. Shodiyev N. Universitet fizika ta’limi tizimida bo’lajak o’qituvchilarni iqtisodiy savodxonligini amalga oshirish muammolari//XXI asrda fizika ta’limi va fani muammolari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Samarqand 2003. -154-156 б.

2.61. Shodiyev N. Talabalarni maktabda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga tayyorlash tizimi// Maktab va hayot jurnali, 2006, 8-son. 6-8 b.

2.62. Shodiyev N. Uzluksiz malaka oshirish – kasb-hunar kollejlari umumta’lim predmet o’qituvchilarini iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishning muhim sharti// Iqtisodiyotni erkinlashtirish va madaniyatda modernizasiyashtirish sharoitida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash

muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –Samarqand: SamISI, 2006. -224 b.

2.63. “O‘zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy –psixogik muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma’ruzalari to‘plami 2000 y. 24-25 may. – T., – 120 b.

2.64. O‘lmasov A., To‘xliyev N. Bozor iqtisodiyoti. Qisqa lug‘at-ma’lumotnoma. – T.: Qobuslar bosh tahririyati, 1991. – 144 b.

2.65. Qur’oni Karim. Tarjima va izohlar. Muallif: Alouddin Mansur. – T.: Cho‘lpon, 1962. 544 b.

2.66. Quronov M. O‘zbek oilasida mehnat va axloqiy tarbiya tarixiga bir nazar. – T.: Taraqqiyot, 1995. - 45 b.

2.67. Sherbakov A. I. Psixologicheskie osnovy normirovaniya lichnosti sovetskogo uchitelya v sisteme vysshego pedobrazovaniya. – L.: Prosveshenie, 1967. – 266 s.

2.68. Eshmurodova G. “O‘quvchilarga iqtisodiy bilimlar berishda ishchan o‘yinlardan foydalanish” // Uzluksiz ta’lim 2007 yil 6-son 62-66 b.

2.69. Xodjaboyev A.R. Nauchni-pedagogicheskie osnovy uchyobno-metodicheskogo kompleksa podgotovki uchitelya truda. – T., 1992, - 42 b.

3. Internet saytlari:

<http://ziyonet.uz>

<http://istorik.uz/> История Узбекистана

<http://www.academy.uz/> Академия наук Республики Узбекистан

<http://maqola.uz> Портал молодых творцов

<http://www.loyiha.uz> Научно- образовательный портал технических знаний

<http://book.uz> Библиотека электронной литературы

<http://www.ilmiy-maqola.uz> –научные публикации

<http://citybook.uz> Электронной библиотека, журналы и газеты онлайн

<http://www.dissertant.uz> Портал молодых ученых

